



O'ZARO MANFAATLI AMALIY HAMKORLIKNI YO'LGA QO'YISHGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Yevropa Ittifoqining Xalqaro hamkorlik bo'yicha komissari Yozef Sikela boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Subhat avvalida Yevropa Ittifoqining yuqori darajali vakili davlatimiz rahbariga Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen va Yevropa kengashi raisi Antoniu Koshaning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Uni izchil kengaytirish uchun katta imkoniyat va salohiyat mavjudligi ta'kidlandi.

O'zbekiston va YI o'rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi yangi bitimning tez fursatda imzolaniishi ham bunga xizmat qiladi.

Transport va logistika, energetika, raqamlashtirish, qishloq va suv xo'jaligi, boshqa ustuvor yo'nalishlarda qo'shma loyiha va dasturlarni ilgari surishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani ta'kidlandi.

O'ta muhim mineral resurslarni qayta ishlash sohasida o'zaro manfaatli amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda joriy yil aprel oyi boshida Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo — YI" birinchi sammiti va Iqlim forumini tashkil etish hamda o'tkazish jihatlarini ko'rib chiqildi.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA

STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASHGA INTILISH JARAYONLARI YUKSAK BAHOLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari yaqinlashib kelayotgan bahor ayyomi — Navro'z munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, birodar O'zbekiston va Qozog'iston xalqlariga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O'zbekiston — Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari batafsil muhokama qilindi.

Savdoni ko'paytirish, sanoat kooperatsiyasi, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida, shu

jumladan, hududlar darajasida amaliy hamkorlik bo'yicha loyihalarni ilgari surish maqsadida o'zaro muvofiqlashgan choralar ko'rish muhimligi qayd etildi.

Shu kunlarda Qozog'iston shaharlarida o'tayotgan qo'shma madaniy-gumanitar tadbirlarga yuksak baho berildi.

Yetakchilar bo'lajak oliy va yuqori darajadagi ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini, shu jumladan, "Markaziy Osiyo plus" formatidagi sammitlarga tayyorgarlikni ko'rib chiqdilar.

O'ZA

BARCHA YO'NALISHLARDA MINTAQAVIY LOYIHALARNI JADALLASHTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov 18-mart kuni telefon orqali muloqot qildilar.

Yetakchilar yaqinlashib kelayotgan bahor va yangilanish bayrami — Navro'z munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, birodar xalqlarimizga tinchlik-osoyishtalik va farovonlik tiladilar.

O'zbekiston yetakchisi Qirg'iziston Prezidentini muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlangani va Qirg'iziston — Tojikiston davlat chegarasini delimitatsiya qilish to'g'risidagi shartnoma imzolanganini bilan ham tabriklandi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni, eng avvalo, savdo, sanoat kooperatsiyasi, logistika, energetika, qishloq xo'jaligi, turizm va

boshqa ustuvor yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlik loyihalari amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Transport-tranzit va energetika infrazo'riyalarini rivojlantirish bo'yicha yirik mintaqaviy loyihalarni jadallashtirish muhimligi qayd etildi.

O'zbekiston va Qirg'iziston yetakchilari bo'lajak oliy darajadagi uch tomonlama uchrashuvga, shuningdek, Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo — YI" sammiti va Iqlim forumiga tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'ZA

FAOL SIYOSIY MULOQOT VA QO'SHMA DASTURLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Subhat avvalida davlat rahbarlari yaqinlashib kelayotgan Navro'z bayrami munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, mustahkam sog'liq, farovonlik va muvaffaqiyatlar, birodar xalqlarimizga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladilar.

Prezidentimiz Tojikiston yetakchisini muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlangani va Tojikiston — Qirg'iziston davlat chegarasini delimitatsiya qilish to'g'risidagi shartnoma imzolanganini bilan ham tabriklandi.

Oliy darajada qabul qilingan bitim va kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Faol siyosiy muloqotni davom ettirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari, jadal madaniy-gumanitar va hududlararo almashinuv dasturlarini qo'llab-quvvatlash va ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Mart oyi oxirida Tojikistonda bo'lajak uch tomonlama uchrashuvga hamda joriy yil aprel-may oylarida mamlakatimizda o'tadigan "Markaziy Osiyo plus" formatidagi sammitlarga tayyorgarlik ko'rish masalalari ko'rib chiqildi.

O'ZA

"Dolzarb bir oylik" safarbarligi

ULAR NOLIMAYDI

MEHNAT QILADI VA BAXTIYOR YASHAYDI

Amudaryolik Jamoliddin Raimboyev bolaligidan dehqonchilikka qiziqardi. Shu bois, o'tgan yili avval shug'ullanib kelgan ishi — savdo-sotiqni yig'ishtirib, 30 sotix yerda issiqxonasi tashkil etdi. Bu xato qaror bo'lmadi. Nega? Chunki o'sha yilning o'zida issiqxonasida yetishtirilgan bodringdan yaxshigina daromad oldi.

Qolaversa, issiqxonaga uchun zarur uskunalarni besh yil muddatga bankning 280 million so'mlik imtiyozli krediti asosida xarid qilgani ham qo'shimcha qulaylik berdi. Ayni paytda issiqxonasidan 3 marta hosil olyapti. Yetishtirilgan mahsulotning xaridori tayin, o'zlari kelib, uydan olib ketadi.

...Ona zamin yashillikka burkanib, tabiat uyg'ongani sari Jamoliddin singari mehnatsevarlar dala va tomorqa ishlariga

kirishadi. Mamlakatimizda aholining tomorqadan samarali foydalanishi, daromad topish imkoniyatini kengaytirish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilayotgani ishga unum bag'ishlamogda. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, ajratilayotgan imtiyozli kredit va subsidiyalar aholi uchun haqiqiy imkoniyatga aylanyapti.

▶ Davomi 4-beta



KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

KORRUPSIYA MAFKURASI VA TAFAKKUR DANGASALIGI

YOXUD BU ILLATNING BARVAQT OLDINI OLIH PREVENTIV CHORALARI XUSUSIDA

Ilmiy kuzatuv va tahlillarga ko'ra, 2017-yilga qadar O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi tarqoq normativ hujjatlar asosida kurashilgan. Ilgari budjet intizomini qo'pol buzish, qo'shib yozishlar, bajarilmagan ishlar uchun haq to'lash, soxta "g'alaba raportlari" ortidan xalq boyligi o'zlashtirish avjida edi. Korruptsiya boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik metodiga asoslangan sobiq sovet jamiyatidan meros bo'lib qolgan.

O'zbekiston BMTning 2003-yil 31-oktabrda qabul qilgan Korruptsiyaga qarshi konvensiyasini 2008-yil 7-iyulda ratifikatsiya qilgan bo'lsa-da, bu illatga qarshi tizimli kurashishning huquqiy asoslari, aniqrog'i, manzilli qonun yo'q edi.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va qat'iyati mahsuli sifatida 2017-yil 3-yanvar kuni "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul

qilindi. Sababi, oldimizda O'zbekistonning dunyo iqtisodiyoti, siyosati, madaniyatida munosib o'rin egallashi, inson kapitali rivojlangan mamlakatlar 50 taligiga kirishi, oliy ta'limdagi 9 foizli qamrovni 2026-yilda 50 foizga yetkazish, aholining munosib yashashini ta'minlash kabi buyuk maqsadlar turardi.

▶ Davomi 3-beta



SAYXUNOBOD TAJRIBASIDAN ILHOMLANDIM

Munosabat

Yerga ekin ekib, undan ozmi-ko'pmi hosil olish — ko'pning qo'lidan keladigan ish. To'g'ri, keng tomorqasi bo'la turib, foydalanmaydiganlar qancha. Ammo hovlida yashaydiganlarning ko'pi, hech bo'lmasa, ro'zg'orga yaraydi, degan maqsadda yerga biror ekin ekib qo'yadi. O'zimiz ham yillar davomida tomorqadan faqat oila ehtiyoji uchun foydalanib kelganmiz. Yetishtirgan mahsulotlarimiz mavsumiy, aniq tartib asosida ekilmagani bois, sotuvga deyarli chiqarilmagan, qo'shimcha daromadi ham bo'lmagan. Hozir esa 10 sotix tomorqadan yiliga 105-110 million so'm daromad topyapman.



Davlatimiz rahbari mendek oddiy insonni "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlaganini eshitganimda ana shular xayolimdanda o'tdi. Tomorqachilikni rivojlantirishda namuna ko'rsatayotgan shaxsiy tomorqa

yer egasi sifatida e'tirof etildim. Kuni kecha Prezident o'tkazgan videoselektor yig'ilishida ishtirok etganim hayotimdagi eng unutilmas voqea bo'ldi.

▶ Davomi 2-beta

SAYXUNOBOD TAJRIBASIDAN ILHOMLANDIM



Boshlanishi 1-betda

Asli kasbim — o'qituvchilik. Mana, o'ttiz yildirki, maktabda fizika fanidan dars beraman. Ishdan bo'sh vaqtlarda oilam bilan xonadonimizdagi 10 sotixli tomorqada dehqonchilik qilamiz. Yuqorida aytganimgidek, yetishtirgan mahsulotimiz ro'zg'orga asqatgan, ortganidan olingan daromad ham oiladagi kam-ko'stga ishlatilgan. Shukur, shuning ortidan kam bo'lmadik, bolalarni katta qildik. Ammo tomorqadan bundan-da ko'p daromad olib, uy-joyli, mashinali bo'lish mumkinligiga ishonch hosil qilyapman.

Davlatimiz rahbarining Sayxunobod tumaniga tashrif davomida tomorqadan samarali foydalanib, yiliga 3 martaqacha hosil olish bo'yicha bergan tavsiyasi ko'plar qatori meni



ham ruhlantirdi. Buning imkonini borligi, shu orqali oddiy dehqonchilikni tadbirkorlikka olib chiqish mumkinligi haqida o'yab, xonadonimdagi 10 sotix yerga boshqacha yondasha boshladim. Avvallari faqat sabzi, dukkakli ekinlar yetishtirgan bo'lsam, endi yiliga 3 marta hosil olishni yo'lga qo'ydim. Daromad ham bir necha barobar oshdi. Issiqxonamdagi birinchi hosil — sabzidan 35 million so'm, ikkinchi hosil — bodringdan 20 million so'm, undan keyin kartoshkadan 26 million so'mgacha daromad oldim. Mahsulotlarimiz bozorda xaridorgir, hosilni asosan Toshkent shahridagi dehqon bozorlarga olib chiqamiz. Buyurtma asosida ham mahsulotlar yetishtiriladi, tadbirkorlar o'zi kelib olib ketadi.

Tomorqamizda 17 quti asalari ham bor. Asalarining bir necha turini ko'paytiramiz. Bir yilda 180-200 kilogramm toza asal olib, 24 million so'mgacha qo'shimcha daromad topyapmiz. Avvaliga bir quti asalarimiz bor edi, keyin qutular soni ko'paydi. Asalari qutisi dalaga qancha yaqin bo'lsa, shuncha ko'p asal olish mumkin. Xonadonimizdan dalagacha masofa bir necha kilometr bo'lgani uchun asal olish imkoniyatimiz ko'proq. Umuman, bu ishdan yaxshi daromad topsa bo'ladi. O'tgan yili Oqqo'rg'on tumani hokimi tashabbusi bilan 10 ga yaqin kam ta'minlangan oilaga 3 qutidan asalari tarqatildi. Ochiq'i, bu ular uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi, oilalar shundan daromad qildi.

Ko'pchilik Toshkent viloyatidagi xonadonlarda tomorqadan deyarli foydalanilmaydi, degan fikrni

doimiy foydalanib, bozorbop mahsulot yetishtirishni o'rganib, yil davomida daromad qilishga o'tyapti. Hozir to'kin, farovon yashayman, degan inson harakat qilsa, bir necha ishning boshini tutib, yaxshigina daromad topadigan davrda yashaymiz. Bir paytlar tadbirkor degan ta'rif kamdankam odamga berilardi. Bugun esa har sohaning tadbirkoriga aylanish, asosiy faoliyatdan tashqari qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lish odatiy hol, hatto zaruratga aylanmoqda.

Men uchun ham qilyotgan ishim tadbirkorlikning bir ko'rinishi. Tomorqadan yiliga 100 milliondan ziyod daromad topyapman. Shuning ortidan Toshkent shahridan 2 xonali uy va yangi avtomobil sotib oldim. Uch farzandimning barchasi oliy ma'lumotli. Katta o'g'lim qurilish sohasida ishlaydi, kichigi menga yordamchi. Yetishtirgan mahsulotlarimizni poytaxtdagi dehqon bozorlaridan tashqari, hududdagi savdo do'konlariga ham yetkazib beramiz.


Sayxunobod tajribasi orqali yurtimizda yana bir yaxshi an'ana shakllandi — mahallalarda "usta dehqon" tamoyili asosida xonadonlarga agronomlar birlashtirilgan, odamlarning mahsulot yetishtirishdan sotuvga chiqarilishigacha ko'maklashilyapti. Bu dehqonchilik, tomorqachilik aniq bilim va tajriba asosida rivojlantirilyapti, degani. Men ham "Agrobank" ATBning Oqqo'rg'on tumani filiali tomonidan agronom sifatida shartnoma asosida ishga qabul qilindim. Hududdagi 25 ta xonadonga asalari boqish hamda 80 ta xonadon tomorqasida sabzi yetishtirishga ko'maklashyapman. Hatto buning uchun menga 5 million so'm oylik maosh ham tayinlangan. Bundan ham oilamga yiliga 60 million so'm daromad kiradi.

O'z daromadim ortishi bilan birga, boshqalarning ham qo'shimcha pul topishiga ko'maklashayotganimdan quvonaman. Odamlarimiz nafaqat mehnatkash, balki azaldan tadbirkor hamdir. Ularga davlat tomonidan berilayotgan sharoit, yo'l-yo'riq va yordam imkoniyatdan kengroq foydalanishga yo'l ochyapti. Men ham bunga hissamni qo'shishda davom etaman. Kelgusida hududimiz aholisining har biri o'z xonadonidagi tomorqadan unumli foydalanib, yuqori daromad olishi uchun bor bilim va tajribamni ishga solaman.

To'lqin MANSUROV,
Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi, "Do'stlik" ordeni sohibi

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Shukuh



Mehr-oqibat, shukronalik va bag'rikenglik timsoli bo'lgan muborak Ramazon oyini xalqimiz bu yil ham ko'tarinki kayfiyatda qarshi oldi. Xuddi shunday ko'tarinki ruhda o'tkazmoqda.



SHUKRONALIK, GO'ZAL AXLOQ VA YAXSHI ODOB FURSATI

Prezidentimizning "Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida"gi qarori bilan ushbu o'z milliy an'ana va qadriyatlariga mos tarzda o'tkazish belgilangan edi. Shu maqsadda yurtimizda "Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi" g'oyasi asosida ko'plab tadbirlar o'tkazildi. Uning doirasida ehtiyojmandlar hamda ilm-ma'rifati yo'lida izlanayotgan yoshlarga yordam qo'llari cho'zilmog'ida. Shu kunlarda barcha mahallalarda ziyolilar, nuroniylarimiz ishtirokida tadbirlar, xonadonlarda iftorlik marosimlari bo'lib o'tmoqda. Mana shunday yig'inlardan foydalanib, oilaviy rishtalarni mustahkamlash, mahallalarda o'zaro tushunish va ishonch muhitini kuchaytirish hamda hurmat va mehr-oqibat qadriyatlarini targ'ib etyapmiz.

Prezidentimiz shu yilning 5-mart kuni Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishidagi nuqtida: "Korruptsiyani yengish uchun, birinchi navbatda, uning ortiqcha hashamat va dabdaba degan o'q'ildizlarini" quritishimiz shart. Eng achinarlisi, bunga tanliq shaxslar bosh-qosh bo'lyapti, odamlar ularga tenglashaman deb, o'zini o'tga-cho'qqa uryapti...", dedi.

Shu bois, davlatimiz rahbari parlament palatalari, mahalliy kengashlar, jamoatchilik vakillari, mahalla raislari, nuroniylarni bu masalaga bosh-qosh bo'lib, aholi orasida tushuntirish ishlari kuchaytirishga chaqirdi. Shundan kelib chiqib, to'rt kishi bir joyda

jamlansak, imkon qadar poklik va halollikni targ'ib etishga urinyapmiz. Shu o'rinda bir hikmatli jihatni aytib o'tsak. Ramazon oyidagi eng go'zal amallardan biri ro'zani bizga buyurilgani kabi tutishimizdir. Bir oy ro'za tutib, lekin amalda yolg'on gapirib, bironing haqini yeb, gunoh ishlarga qo'l urgan banda kun davomida faqat tanasini qoldirgan bo'ladi, xolos. Bu xususida janobi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan hadis ham bor. Yana bir muhim jihat shundaki, Ramazon oyida qalblar yomg'ir yoqqan yer kabi yumshaydi. Shu bois, bu oyingin barakatidan foydalanib, ezgulik targ'ibotini ko'proq qilishimiz zarur.

Ramazon oyida e'tiborli bo'ladigan yana bir holat isrofgarchilikning oldini olishdir. Kunni ro'zador bo'lib o'tkazib, oqshomga borib iftorlik dasturxonida isrof va dabdabozlik bilan turli taomlarni isrof qilib hozirlasa, bu ham maqbul ish bo'lmaydi.

Zero, Alloh taolo Qur'oni karimda: "Yana Rabbingiz e'lon qilgan (bu so'zlar)ni eslangiz: "Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukur qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordiyu, noshukurchiлик qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir", deb marhamat qiladi (Ibrohim surasi, 7-oyat).

Bizga berilayotgan yaxshiliklarga imkonimiz boricha yaxshilik, solih amallar bilan javob qaytarmog'imiz lozim. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham bu ma'noni ta'kidlab, aytdilar:

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Odamlardan minnatdor bo'lmaydigan kishi Allohga ham shukur qilmaydi" (Imom Termiziy rivoyat qilgan).

Ramazon oyi go'zal axloq va yaxshi odob fursatidir. Bu oyda biror kishi bilan tortishish va janjallashish yaxshi ish emas. Ramazon bunday amallardan yanada uzoqroq bo'lish, hatto birov so'ksa ham, haqorat qilsa ham unga ro'zadorligini aytishdan boshqa javob qaytarilmaydi. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Binobarin, ro'za tutgan kishi haqorat so'zlarini tilga olmasin, so'zlashganda baqirmasin, birovni masxara qilmasin! Agar biror kishi ro'zador bilan urishsa yoki uni haqorat qilsa, ro'zador ikki bor: "Men ro'zadorman", desin!" (Buxoriy rivoyati).

Shukri, bu yilgi Ramazon oyingin katta qismi nihoyatda fayz-u barakatli, xayrli ishlarga boy o'tdi. Xususan, atrof-muhitni asrash, muqaddas qadamjo, ziyoratgoh va qabristonlarni obodonlashtirish, ko'chatlar ekish ishlari bajarildi. Ayrim hududlarda bular hamon davom etmoqda. Yaratgandan so'raymizki, yurtdoshlarimizni ushbu xayrli ishlarda bardavom bo'lishga qodir qilsin!

Narzullo NARZIYEV,
Qiziltepa tumani bosh imom-xatibi

Ijtimoiy himoya BO'LAMAN DEGANGA IMKONIYAT, BO'LMAYMAN DEGANGA...

Uzun tumani Yangi kuch mahallasida yashovchi Muhridin Mashrabov va uning turmush o'rtog'i Hulkar Mamadaliyeva ikkinchi guruh nogironi. Bu juftlikning imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, ularning qilyotgan ibratli ishlari boshqa to'rt muchasi sog', lekin boqimandalik kayfiyatida yurganlarga yaxshigina o'rnak bo'lgudek.

Muhridin Mashrabov mahallasidan bo'sh turgan binoni ijaraga olib, hozir mahalladoshlari uchun kompyuter xizmatini yo'lga qo'ygan. Uning so'zlariga ko'ra, inson hech qachon to'xtab qolmasligi kerak va hamisha oldinga intilishi zarur.

Nogironlik — taqdir ekan. Bu hayotning sinoviga ko'nib, shu ekan-da deb ketaverish kerak, degani emas. Odamlar orasida o'rinni topishda gap. Chunki sizga qarab turgan, sizni oilaning ustuni deb bilgan ayolingiz, farzandaringiz bor, — deydi u. — Ishlayman deganga sharoit bor, shukur. Bo'lmayman deganga bahona ham doim tayyor.

Muhridin Mashrabovning turmush o'rtog'i Hulkar Mamadaliyeva yoshligida o'rgangan hunari — gilamdo'zlik ortidan tumanda e'tibor qozonganlardan. Tanlovlarda g'olib bo'lib, o'nlab shogird ham tayyorlagan.

Bolaligidan kashtachilik bilan shug'ullanib kelaman. Onamdan va momomdan o'rgangan hunarim ortidan gilam, sholcha, xurjun, chopon, milliy kiyim va do'ppilar tayyorlab, bozorga chiqaraman. Oyiga 6-7 million so'mgacha foyda olyapman, — deydi Hulkar Mamadaliyeva. — Bir necha yildan buyon shu hunar bilan mashg'ulman. Turli iroqi va surxoncha do'ppilar, so'zana, to'nlar tayyorlayman. Shogirdlarim bor. Tayyorlayotganlarimizning hammasi qo'l mehnati. Shu sababli ham xaridorgir.

Hulkar Mamadaliyeva o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yishda "mahalla yetiligi"ning xizmatlari katta bo'lganini bildiradi.

Mahalladagi hokim yordamchisi ko'magi bilan subsidiya asosida "Hunarmand" uyushmasiga a'zolik badali to'lab berildi. Shuning ortidan Hulkar Mamadaliyeva gilamdo'zlik uchun asbob-uskunalar hamda tikuv mashinasi ham topshirildi.

Endi ushbu yosh oila o'z tadbirkorligi ortidan doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi. Qishloqdoshlarining aytishicha, bu yosh oila mahallada bo'lib o'tadigan barcha tadbirlarda faol. Eng asosiysi, nogironligi bo'lishiga qaramay, to'rt muchasi sog'larga o'rnak.



Angor tumanidagi Gulzor mahallasida yashovchi Barno Saydullayeva ham ishbilanmon ayollardan. Barnoning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, sira to'xtab qolmagan. U 15 yildan buyon tikuvchilik qilib keladi. Avvaliga bitta tikuv mashinasida ish boshlagan bo'lsa, bugun sex tashkil etgan.

Maqsadim orzu-istaklarimni amalga oshirish, oilamni, men singari imkoniyati cheklanganlarni qo'llab-quvvatlash va faoliyatimni kengaytirish edi, — deydi Barno Saydullayeva. — Hokim yordamchisi tavsiyasiga ko'ra, olingan kredit bilan biznesimni kengaytirish va ko'plab ish o'rnlari yaratishga erishdim, shu bilan birga, o'z ishidan yaxshi daromad ham olyapman.

Barno Saydullayeva tikuvchilik sexi orqali nafaqat o'zini, balki mahallasida yashovchi 10 ga yaqin xotin-qizni ham ish bilan band qilgan. Bu uning maqsadlarga erishishdagi zhamatlarining samarasi.

Xotin-qizlar tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, ishbilanmonlik g'oyalarni amalga oshirishi uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlar bor. O'z navbatida, mahallamizda ham o'nlab ayol va qizlar bu qulayliklardan oqilona foydalanmoqda, — deydi Gulzor mahallasidagi hokim yordamchisi Azamat Shoto'rayev. — Bunday chekka-chekka mahallalardagi odamlarning dunyoqarashi o'zgarayotgani, yashashga, yaratuvchanlikka intilishi mamlakatimizdagi islohotlar natijasi.

Nogironligi bo'lgan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularni jamiyatga faol moslashtirish muhim masalalardan biri.

Muzrabot tumanidagi Oriyat mahallasida yashovchi Fotima Ergasheva bundan 3 yil ilgari kutilmagan sinovga duch kelib, harakatlanish qobiliyatini yo'qotdi. Avvaliga bu uni chuqur tushkunlikka tushirdi. Kunlari ro'zg'or tashvishlari, farzandlarga e'tibor qaratish, uy yumushlarini bajarish bilan o'tgan oddiy qishloq ayoli uchun bu sinov nihoyatda mushkul edi. Ammo uning hayotga ishonchi sira yo'qolmadi.

Muhridin Mashrabov mahallasidan bo'sh turgan binoni ijaraga olib, hozir mahalladoshlari uchun kompyuter xizmatini yo'lga qo'ygan. Uning so'zlariga ko'ra, inson hech qachon to'xtab qolmasligi kerak va hamisha oldinga intilishi zarur.

Nogironlik — taqdir ekan. Bu hayotning sinoviga ko'nib, shu ekan-da deb ketaverish kerak, degani emas. Odamlar orasida o'rinni topishda gap. Chunki sizga qarab turgan, sizni oilaning ustuni deb bilgan ayolingiz, farzandaringiz bor, — deydi u. — Ishlayman deganga sharoit bor, shukur. Bo'lmayman deganga bahona ham doim tayyor.

Muhridin Mashrabovning turmush o'rtog'i Hulkar Mamadaliyeva yoshligida o'rgangan hunari — gilamdo'zlik ortidan tumanda e'tibor qozonganlardan. Tanlovlarda g'olib bo'lib, o'nlab shogird ham tayyorlagan.

Bolaligidan kashtachilik bilan shug'ullanib kelaman. Onamdan va momomdan o'rgangan hunarim ortidan gilam, sholcha, xurjun, chopon, milliy kiyim va do'ppilar tayyorlab, bozorga chiqaraman. Oyiga 6-7 million so'mgacha foyda olyapman, — deydi Hulkar Mamadaliyeva. — Bir necha yildan buyon shu hunar bilan mashg'ulman. Turli iroqi va surxoncha do'ppilar, so'zana, to'nlar tayyorlayman. Shogirdlarim bor. Tayyorlayotganlarimizning hammasi qo'l mehnati. Shu sababli ham xaridorgir.

Mahalladagi hokim yordamchisi ko'magi bilan subsidiya asosida "Hunarmand" uyushmasiga a'zolik badali to'lab berildi. Shuning ortidan Hulkar Mamadaliyeva gilamdo'zlik uchun asbob-uskunalar hamda tikuv mashinasi ham topshirildi.

Endi ushbu yosh oila o'z tadbirkorligi ortidan doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi. Qishloqdoshlarining aytishicha, bu yosh oila mahallada bo'lib o'tadigan barcha tadbirlarda faol. Eng asosiysi, nogironligi bo'lishiga qaramay, to'rt muchasi sog'larga o'rnak.

Muzrabotning Oriyat mahallasida ishbilanmonlik muhiti tobora jonlanib bormoqda. Bu yerda yashovchi aholi orasida imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, tadbirkorlik, hunarmandlik bilan shug'ullanuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, shu mahallaning Yoshlik ko'chasida yashovchi Xadicha Ergasheva bolaligidan gulchilik va suvenir kompozitsiyalar yaratish bilan mashg'ul. U bu hunarni san'at darajasiga yetkazgan.

Xadicha Ergashevaning kelajak rejalari yanada ulkan — qo'shimcha yer olib, pul yetishtirishni kengaytirishni maqsad qilgan.

Sanam Abduraimova Sho'rchi tumanining Kakan mahallasida istiqomat qiladi. Yolg'iz ona, bir farzandi bor. Turmush o'rtog'i bilan ajrashgach, uysiz qolgan edi. E'tiborlisi, u singari insonlarga nafaqat davlat, balki saxovatpesha tadbirkorlarning ham ko'magi katta bo'lmoqda.

Viloyat kengashi deputati va tadbirkorning amaliy ko'magi bilan Sanam Abduraimovaga yangi xonadon qurib berildi.

O'zimga boshpana qurish uchun xorijga ish izlab ketmoqchi edim, lekin saxovatpesha insonlar ko'magi sabab yiroqlarga ketishimga ehtiyoj qolmadi. Shukri, oilam bag'ridaman, — deydi Sanamxon. — Uyi borming o'yi yo'q, deydishdi. Rostdan ham, o'z boshpanangda xotirjam yashashning zavqi bo'lakcha.

Yurt rivoji, yurtdoshlar hayoti farovonligiga hissa qo'shish istagidagilar ko'p. Ulardan biri bo'lgan tadbirkor bir oilaning ijtimoiy ahvoli yaxshilanishi, jamiyatda sog'lom oilalar soni yana bittaga ortishiga xizmat qildi. Savob ishini har kim, har kun qilishi kerak, deydishdi. Davlat rahbari topshiriqlariga labbay, deya javob qaytarayotgan saxovatpesha tadbirkor, tashabbuskor deputat, mas'uliyatli rahbarlarning bu kabi xayrli amallari natijasida jamiyatda baxtli oilalar ko'paymoqda.

E'tiborlisi, yuqoridagi ezgu ish tashabbuskori bo'lgan ham tadbirkor, ham deputat inson shu vaqtga qadar 27 ta oilaga uy qurish va ta'mirlash uchun ko'mak berganini aytishdi.

Biroq tadbirkor ishlarni yaxshilik uchun qilganini aytib, ismini gazetamizda oshkor etishimizni istamadim. Oilalar quvonchiga sababchi bo'layotgan deputatning xayrli ishlari bilan birga kamtarligini ham ko'pchilik o'rnak qilib ko'rsatak arzayapti.

Har bir insonning hayoti o'ziga xos sinovlardan iborat. Ba'zan taqdir shunday sinovlarni beradiki, inson o'zini yo'qotib qo'yishi, umidsizlik girdobiga tushib qolishi hech gap emas. Lekin hayot va faoliyatlarini bugun yoritilgan haqiqiy qahramonlar esa o'sha sinovlarga bardosh bergan, kurashgan va saodatli kunlarga yetishgan.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

KORRUPSIYA MAFKURASI VA TAFAKKUR DANGASALIGI

YOXUD BU ILLATNING BARVAQT OLDINI OLISH PREVENTIV CHORALARI XUSUSIDA



Sharif QOBILOV,
O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, polkovnik

Boshlanishi 1-betda

2016-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan 1400 dollar qiymatidagi YIM bilan xalqni rozi qilib bo'lmagan 158-o'rinda edik. Korruptsiya balosi payini qirmay, yuqoridagi maqsadlarga erishib bo'lmadi.

Muhimi, bugun O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi kurashish modeli takomillashib bormoqda. Byurokratiyani kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish borasidagi chora-tadbirlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining muhim elementiga aylandi.

Prezidentimiz yangi O'zbekistonni adolat, halollik, yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligi tamoyili asosida barpo etish vazifasini belgilashdan asosiy maqsad yurtimizni korruptsiyadan xoli davlatga aylantirishdir.

"Yangi O'zbekiston — inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" tamoyili asosida kechayotgan islohotlarimiz BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang. Zero, korruptsiya insonni qadrsizlantiradi va axloqsizlikni keltirib chiqaradi.

O'tgan davrda mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi chora-tadbirlar izchilligini ta'minlash maqsadida 2017-yildan korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat dasturlarini qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Har ikki yilga mo'ljallangan davlat dasturlari qabul qilindi.

Oliy Majlis palatalari majlislarida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy hisobotni eshitish amaliyoti joriy etildi. Eng korruptsiyalashgan hududlar va sohalarni aniqlash uchun reyting va indekslar ishlab chiqildi. "Korruptsiyasiz soha", "Korruptsiyasiz hudud", "Shaffof vazirlik", "Shaffof hudud" loyihalari amalga oshirilmogda.

2025-yil 11-fevral kuni "Transparency International" 2024-yil uchun Korruptsiyani qabul qilish indeksini e'lon qildi. Undagi natijalarga ko'ra, O'zbekiston indeksdagi o'rini izchil yaxshilab, 32 ball bilan 180 davlat ichida 121-o'rinni egalladi.

Bu natijaga quydagi choralar evaziga erishildi.

Birinchiidan, davlatning ruxsat berish funksiyasi korruptsiyani keltirib chiqarayotgani bois, davlat boshqaruvida byurokratiyani kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar natijasida **ijro organlari soni 61 tadan 28 taga qisqartirilib, vazirlik va idoralar funksiyalarini optimalashtirish orqali xususiy sektorga o'tkazilayotgan davlat funksiyalarini kamida 3 barobar ko'paytirish belgilandi.**

Ikkinchiidan, O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatida raqamlashtirishga ustuvor vazifasifatida qaraldi. Raqamlashtirishni pajsalga solgan idorada korruptsiya rivojlanishi rahbarlar ongiga singdirilmogda.

Davlat xizmatlari ko'rsatish sifati yaxshilab, ortiqcha tartib-taomillar qisqartirildi hamda elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni ko'paytirildi. Raqamlashtirish orqali inson omilini imkon qadar istisno qilish maqsadida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq **369 ta loyiha amalga oshirildi.**

Uchinchiidan, ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar

ro'yxati yanada kengaytirilib, aholini qiynab kelayotgan qator dolzarb masalalarga yechim topilmogda.

To'rtinchidan, mamlakatimizda kapital qurilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va davlat xaridlari sohaslarida korruptsiya xavf-xatarlari mavjudligini inobatga olib, mazkur yo'nalishlarda "Korruptsiyasiz soha" loyihalari amalga oshirildi.

Beshinchidan, 2020-yil 29-iyunda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlikka mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish uchun uning birlamchi sabablarini o'rganish zarurligi qonunda belgilab qo'yildi.

2023-yil 19-dekabr kuni "Tashkent city" xalqaro ishlabarmonlik markazi hududida xalqaro hamjamiyatning korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarini ifodalovchi "Halollik monumenti" o'rnatilgandi.

Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy ushbu monumentning aynan Toshkentda o'rnatilishi va "Halollik g'oliblari"ni taqdirlash joyi Toshkent etib tanlangani O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi qat'iyyatli kurash boshlangani, korruptsiya haqida ochiq gapira oladigan muhit yaratilgani hamda so'nggi yillarda Korruptsiyani qabul qilish indeksida sezilarli siljish yuz bergani deb izohladi.

Dabdaba, isrofgarchilik — korruptsiyaning o'q ildizlari

Ilmii tadqiqotlarimizda korruptsiyaning mafkurasi mavjudligini tadqiq etdik. Bu — ochko'zlik, pulparastlik, molparastlik, mansaparastlik, dabdababozlik, shuhratparastlik. Korruptsiya kelib chiqishida antropologik omillarni o'rganish muhim. Boylikka ruju qo'yish inson xarakterini buzadi.

Korruptsiya molparastlik, pulparastlikdan oziqlanadi. Agar jamiyatda pul fetishizmi hukmronlik qilib, g'oyaviy bo'shliq sodir bo'lsa, korruptsiya rivojlanadi, jamiyat inqirozga yuz tutadi. Oqibatda pulga va hokimiyatga intilish kuchayadi. Bu, o'z navbatida, mamlakat xavfsizligiga rxna soladi.

Shu kabi ijtimoiy illatlarni bartaraf etishda axloqning poklik, halollik fazilatlarini shakllantirish masalalari bo'yicha barcha ta'lim muassasalari va tashkilotlarda doimiy o'qitish va malaka oshirishni ta'minlash, shuningdek, bu borada amaliy yo'nalishga ega bo'lgan



qolmogda. Buyumparastlik va xudbinlikning shu tariqa hammabop qadriyat sifatida tiqishirilishi inson ma'naviy olamiga jiddiy tahdid solmogda.

Prezidentimiz yig'ilishda bu muhim masalaga to'xtalib, "Korruptsiyani yengish uchun birinchi navbatda uning ortiqcha hashamat va dabdaba degan o'q ildizlarini quritishimiz shart. Eng achinarlisi, bunga taniqli shaxslar bosh-qosh bo'lyapti, odamlar ularga tenglashaman deb, o'zini o'tga-cho'qqa uryapti. Bu borada ayrim rahbarlar o'zining kamtarona turmush tarzi bilan barchaga namuna bo'lish o'rniga, bunday soxta qadriyatlar asiriga aylanib, noqonuniy daromad topishga intilayotgani ham bor gap", dedi.

Demak, keng jamoatchilik birlashib, nafsni tarbiyalash borasidagi ishlarni jadalashtirishimiz kerak. Bugun to'y-hashamlar bilan bog'liq ortiqcha xarajalar ming-minglab oilalarning nafaqat iqtisodiy ahvoriga, balki butun hayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmogda. Ortiqcha orzu-havaslari insonni nopok yo'llar bilan pul topishga undaydi. To'y-hashamlar va turli ma'raka tadbirlar bilan bog'liq masalalarni qat'iy tartiblashtirish kerak.

Axir pandemiya sharoitida 30 kishilik to'y, ma'raka va marosimlar o'tkazildi-ku. Hech kimning baxti shu bilan kamayib qolmadi.

Isrofgarchilik o'rinsiz, ortiqcha sarf qilish, behudaga xor, nobud qilishdan boshqa narsa

Korruptsiyaning oldini olishning muhim shart-sharoiti sifatida halol mehnat orqali daromad topishni insonning hayotiy ehtiyojiga aylantirish zarur. Keng aholi qatlami o'z ehtiyojlarini yengil, oson yo'llar bilan qondirishga harakat qilsa, inson falokat (inqiroz)ga uchrashi mumkinligini aniq, hayotiy misollar orqali tushuntirish kerak. "Qush uyusida ko'rganini qiladi", degan xalqona fikrga asoslanib, korruptsiyaga qarshi murossiz munosabatni oila muhitida boshlab kutilgan samara berishi shubhasiz.

Naqshbandiylik adolatni, o'z mehnati asosida bunyod etilgan halol luqmani ma'qullagan, dabdabali, hashamatli hayotni rad etgan, g'irrom va nopok yo'llar bilan mol-mulk to'plashni qoralagan. Bu ta'limot insonparvarlik, rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, ma'naviy poklik, kamtarlik, samimiylilik kabi chin insoniy fazilatlarini ulug'lagan. Uning "Dil ba yor-u, даст ba kor" — "Ko'ngil Allohda-yu, qo'l mehnatda" shiori Jomiy va Navoiy kabi mutafakkirlarni o'ziga jalb etgan.

Umuman olganda, adolatsiz, mehnatsiz daromad insonga hech qachon obro' keltirmaydi, daromadlardagi tengsizlikni keltirib chiqaradi va kuchaytiradi.

"Halollik vaksinasi"

Prezidentimiz "halollik vaksinasi" atamasini birinchi bo'lib ilmii muomalaga kiritgani bejiz emas. 2020-yili Oliy Majlisga Murojaatnomasida "... jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'yg'an yuksak marralarga erisha olmaymiz", degandi. Ushbu da'vatona fikrdan xalqimiz ma'naviy olamini asrashga yo'ladosh bo'ladigan o'lmas qadriyatlar — imon, insof, diyonat, e'tiqod, halollik, adolat kabi chin insoniy fazilatlarini, vatanparvarlik tuyg'usini farzandlarimiz ongiga singdirishimiz lozimligini anglatdi. Ongi va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Axir bejiz "Bola loy, ota-ona kulol", deyilmaydi. "Halollik — aslzodalikdir", "Asl aynimas — oltin zanglamas" kabi donish-mandona so'zlar mazmun-mohiyatini yoshlarga idrok ettirish zarur.

Demak, keng jamoatchilik bilan "Pora olinishi emas, pora berinishi tugatish kerak" tamoyili asosida o'quv seminarlar o'tkazish masalasi o'talozardir.

Vaksina lotin tilida "sigir" ma'nosini anglatasa-da, gap bu yerda jonoz haqida emas, uning sutida mavjud sog'lomlashtiruvchi mikroelementlar haqida bormogda. Sut, avvalo, poklik timsoli, inson salomatligining muhim vositasi, halollik ramzi hamdir.

"Halollik vaksinasi" deganda uni biologik dori emas, aksincha, ijtimoiy preparat sifatida insonni, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish vositasi tushunilishi kerak. Bu vaksina halollikni ta'minlovchi barcha vosita va usullar majmuasidir.

Masalan, bir yerda ma'muriy, iqtisodiy chora ustuvor bo'lsa, ikkinchi yerda bilim berish va tushuntirish ishlari ustuvor bo'ladi. "Halollik vaksinasi" ma'juziy ma'noda halollikni shakllantiruvchi ijtimoiy preparatdir. U jamiyatga zid illat — korruptsiyadek jiddiy kasallikni keltirib chiqaradigan yoki qo'shimcha ta'sir ko'rsatmasligini oldini oladi. Immunologik xotira organizmida begona agent (harom luqma) larni samarali bartaraf etadi yoki bartaraf etishni tezlashtiradi.

"Halollik vaksinasi" ijtimoiy preparat ekan, uning asosida ma'naviyat, chin insoniy ta'lim-tarbiya, vatanparvarlik yotadi. Mazkur vaksina fuqarolarda sof insoniylik

va kasbiy burchini chuqur anglash, jamiyat va vatan oldidagi majburiyatlarini halollik bilan bajarish hissini shakllantiradi. Chunki halollik ijtimoiy muhitda, xalq orasida yaratiladi.

Uning muhim jihati — korruptsiogen sxema, ya'ni korruptsiyalarining "daromad" topishga qaratilgan hiyla va nayranglarini o'z vaqtida aniqlashi, diagnoz qo'yishi hamdir.

Vijdon pokligi

"Korruptsiya — inson fe'liga xos bo'lgan xudbinlik", deb ham baholanaadi. 2018-yilda XXV jahon falsafa kongressi Xitoyda "Inson bo'lishni o'rganaylik" mavzusida o'tkazilgan ham bejiz emas. Buni dunyo xalqlarini imonli, e'tiqodli but bo'lishga, vijdon sofligi, qalb pokligiga erishishga da'vat deb hisoblash mumkin.

Prezidentimiz yig'ilishda insonni inson qiladigan oliy tuyg'u — vijdon masalasiga to'xtalib, "Korruptsiyaga qarshi kurash — umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishidir. Umuman, bu jarayonda hech kim chetda turmasligi kerak. Shu bois, korruptsiyaga nisbatan murossiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilishimiz zarur. Avvalo, nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish lozim. Bu — eng to'g'ri yo'l", dedi.

Vijdon sotilishi korruptsiya ifodasidir. Chunki korruptsiya vijdonning sotilishida namoyon bo'ladi. Demak, sotilganda vijdon o'ladi. Insoniylikka putur yetadi.

Vijdonli odam uyatli bo'ladi. Yusuf Xos Hojib: "Kishilar orasida yetug'i uyatli kishidir", degan. Haqiqatan, vijdonli inson uyatli bo'ladi. Inson o'z faoliyatini vijdon amri bilan boshqaradi. Buyuk adib Abdulla Qodiriy "Manim mezonim vijdonim bo'lib keldi. Bundan so'ng ham jilovim o'shaning qo'lida. Demak, manim istiqbolim ta'min qilingandir", deb yozadi. Demak, insonni inson qiladigan, uning faoliyatini boshqaradigan nazorat belgisi vijdondir.

Shu bois, Prezidentimiz yig'ilishda vijdon pokligini ta'minlash har birimizning chin insoniy burchimiz ekanini anglashga da'vat etdi.

Ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy halollik tizimini yaratish maqsadida davlat xizmatiga "halollik vaksinasi"ni joriy etish tamoyili amaliyotga tatbiq etilmogda.

Jamiyatda barchaning manfaatlarini ifodalaydigan ommaviy halollikni oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Korruptsiyaga qarshi kurashishda halollik mutlaq zaruratga aylanishi kerak. Halollik eng yuqori xulq-atvor qoidalari rioya etishni talab qiladi hamda ochko'zlikka, pulparastlikka, buyumparastlikka qarshi, shaxsiydan jamiyat manfaatlarini ustuvorligiga, adolatsizlikka qarshi gapirish, korruptsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi mustahkam turish va har qadamda ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlikni qo'llab-quvvatlashga chaqiradi.

Halollik shunchaki tushuncha emas, xatti-harakatlarimizni to'g'rilik, ochiqlik va shaffoflik hamda hisobdorlikka yo'naltiradigan yetakchi tamoyil, axloqiy yo'lchi yulduzdir. Usiz jamiyat tanazzulga uchraydi.

"Samarali boshqaruv" (good governance) prinsipi yoki yaxshi ma'muriyatchilikka asoslangan davlatda, avvalo, boshqaruv korruptsiyaga qarshi yuqori xulq-atvor, halollik tamoyillari va qadriyatlariga asoslanadi. Tashkilotlar o'z jamoasida axloqiy madaniyatni rivojlantiradigan xodimlar ishi faoliyatidan qoniqish his qiladi. Shu tariqa yuqori mahsuldorlikka erishish orqali farovonlik darajasi ham oshib boradi. Davlat xizmatchilari, ayniqsa, yuqori darajadagi rahbarlarda "rahbar shaxsiy namunasi" (Tone at the Top) va halollik qadriyatlarini oshirish kunning asosiy vazifasidir.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari hozirgi texnologiyalar davrida korruptsiyaning yangi, raqamli ko'rinishlari paydo bo'layotganiga to'xtalib, yangi o'quv yilidan Ichki ishlar va Huquqni muhofaza qilish akademiyalarida bu yo'nalishda mutaxassis tayyorlash boshlanishini ta'kidladi. Lekin bunday turdagi jinoyatlarini aniqlash va oldini olishda faqatgina zamonaviy kadrlarning o'zi yetarli emasligi Prezidentimiz tomonidan haqli ravishda qayd etilib, xalqaro tajribani o'rganish, kiberkorruptsiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratish, mansabdorlik va maishiy korruptsiya omillarini tahlil qilish, ularning oldini olish bo'yicha ilmii asoslangan takliflar

ishlab chiqib, amaliyotda qo'llash zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bundan 4 yil avval IIV akademiyasi magistraturasida ichki ishlar organlari uchun tayyorlanayotgan boshqaruv kadrlariga "Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati" fan sifatida o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Magistratura tinglovchilari o'qish jarayonida Toshkent shahri va viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalariga birlashtirilgan, ular yoshlar bilan jinoyatchilik, ayniqsa, korruptsiyaning barvaqt oldini olishga qaratilgan mavzularda uchrashuvlar o'tkazayotgani yaxshi samara bermogda.

Bugun akademiya professor-o'qituvchilari rasmiy ma'lumotlarga asoslanib, korruptsiyaga moyil sariq va qizil hududlar toifasida, vazirlik va tashkilotlar, viloyatlar, ta'lim muassasalari va ijtimoiy-iqtisodiy sektorlarda huquq-targ'ibot ishlarni olib bormogda.

Korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi choralar samaradorligini oshirishda ilmii, tanqidiy va ekspert salohiyatini kuchaytirish nihoyatda muhim. Bugungi kunda aynan korruptsiyani keltirib chiqarayotgan sabablarni o'rganish, tahlil qilish, bartaraf etish bo'yicha asoslangan takliflarga ehtiyoj yuqori. Bu esa mazkur yo'nalishdagi ilmii tadqiqotlar, o'rganishlar ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Korruptsiya ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikdan hayiqadi. Kyengaytirilgan yig'ilishda jamiyatimizda korruptsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratilgani, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o'rni va ta'siri ortib borayotgani qayd etildi. Ilgari bu mavzu jurnalistlar uchun mutlaq yopiq edi. Hozirgi vaqtda mavjud holat ochiqlik va shaffoflik tomoniga butunlay o'zgaradi. Yurtimizdagi ochiqlik bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rni 138 pog'onaga yaxshilandi, Markaziy Osiyoda birinchi, dunyoda 30-o'ringa ko'tarildi.

Jahonning ko'plab barqaror va taraqqiy etgan mamlakatlarida korruptsiyaga qarshi kurashishda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining kuchli jamoatchilik nazorati hal qiluvchi omildir. Bizda ham korruptsiya huquqbuzarlikni fosh etish, aholining korruptsiyaga qarshi murossizligini shakllantirish, huquqiy bilim va ko'nikmalarini boyitish, ijtimoiy faolligini oshirishda ularning faol ko'ragiva ehtiyoj sezilmogda. Shu bois, NNT, OAV, fuqarolik jamiyati institutlarining korruptsiyaga qarshi xulq-atvorni shakllantirishdagi roli va faoliyat samaradorligini oshirish kerak.

Huquqiy ta'lim va tarbiya — hayotiy zarurat

Davlat boshqaruvi organlaridagi korruptsiya aholining huquqiy ongini deformatsiyalanishiga va jamiyatda huquqiy nigilizm shakllanishiga zamin hozirlaydi. Shu bois, huquqiy nigilizm, ya'ni qonunlarni mensimaslik yoki chetlab o'tish huquqiy davlat barpo etishni qiyinlashtiradi. Huquqiy davlatning ko'zi ham, so'zi ham, quroli ham, himoyasi ham qonun ekanini yangilangan Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilganini hech kim unutmashigi kerak.

Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishdan ko'zlangan maqsad jamiyatning to'g'ri, demokratik yo'l bilan rivojlanishida har bir fuqaroning huquqiy madaniyat sohibi bo'lishiga erishish edi. Chunki huquqiy tafakkur shakllanmasa, turli nonumatosibliklar — korruptsiya, ta'magirlik, o'g'rilik kabilar kelib chiqaveradi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat odamlarning harom ishg qo'l urishini cheklaydi. Huquqiy madaniyat jamiyatda "qonun va adolat — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar"ligi prinsiplari qaror toptirishda muhim omil sanaladi.

Umuman olganda, Prezidentimiz yig'ilishda alohida ta'kidlaganidek, "Hamamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois, mahalla faollari, nuroniyalar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar — umuman, butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarshi kerak".

Birlashib, butun jamiyat jipslashib korruptsiyani bartaraf etsak, bizni hech kim va hech qachon yonga olmaydi. Chunki mamlakatimiz yanada rivojlanadi, xalqimizning davlatga va kelajakka ishonchi yanada mustahkamlanadi.

Yangi O'zbekistonni korruptsiyadan xoli mamlakatga aylantirishda barchamiz ma'naviy quvvatlarimizni birlashtirib, toza qo'llarni pok qalb va vijdon amrimiz bilan mahkam tutaylik.

“Dolzarb bir oylik” safarbarligi

ULAR NOLIMAYDI

MEHNAT QILADI VA BAXTIYOR YASHAYDI

Boshlanishi 1-betda

Tumanning Arnabo'yi mahallasidagi yana bir tomorqachi Oybek Xalilayev ham oilasi bilan 4 sotixli issiqxonasida bodring yetishtiradi. Bu yil dehqon sinov tariqasida pomidor va qalampir ekishga bel bog'ladi. Issiqxonadan tashqari 30 sotix tomorqasida kartoshka, karam singari ekinlar ekadi. Issiqxonaga qadalgan bodring ko'chatlari ham o'z tomorqasida ko'kartiрилgan.

Oybek Xalilayevning jismoniy imkoniyati cheklangan. Lekin irodali. Ba'zi sog'lom odamlardek nolimaydi. Mehnat qilib, oilasini halol rizq bilan ta'minlayotgan. Onasi — 75 yoshli Gulchehra To'rayeva haligacha tomorqada mehnat qiladi. Boshqalarga o'mak. Tomorqadan olingan daromad ortidan Oybek Xalilayevning katta qizi Malohat Boltoboyeva “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti”

milliy tadqiqot universitetida tahsil olmoqda. Oila nafaqat issiqxonaga, balki chorvachilik va asalarichilik bilan ham shug'ullanadi. Shunga yarasha hayoti farovon.

Astoydil mehnat qilinsa, tomorqa chinakam daromad manbai. Farovon turmush kafolati. Yer mehr bergandan saxovatini ayamaydi. Hayotiga baraka kiritadi. E'tiborlisi, oramizda buni anglab yetganlar safi tobora kengayib bormoqda. Misol uchun, tumanning Choyko'l mahallasida yashovchi Mahmud Norboyev ham imtiyozli kredit evaziga qurgan issiqxonasida 30 dan ortiq xotin-qizni mavsumiy ish bilan ta'minlab kelmoqda.

Dastlab 2022-yilda 33 million so'mlik kredit olib, tomorqasida 9 sotix issiqxonaga tashkil qilish orqali faoliyatini boshlagan edi. So'ng tadbirkorlikni kengaytirish maqsadida yana 230 million so'mlik kredit hisobiga 1,5 gektar yerni ijaraga oldi va bu yerda ham 21 sotixli issiqxonaga barpo qildi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bugun ushbu issiqxonada pomidor-bodring yetishtirilmoqda. Issiqxonaga har yili 300 million so'mgacha daromad keltirilmog'ya.

Tumandagi O'rta qal'a ovulida 1 gektar maydonda issiqxonaga tashkil qilgan Rustam Yusupov ko'chat va sabzavotlar yetishtirib kelmoqda. 50 tonnadan ortiq hosil olib, yiliga 500 million so'm atrofida daromad ko'rmog'ya. Bunda unga “Tomorqa xizmati” korxonasi yordami qo'l kelmoqda. Korxonaga aholiga 12 yo'nalishtirish xizmat ko'rsatayapti. Jumladan, 700 tonna sig'imga ega sovitkichli omborxonasi, 40 mingta jo'ja ochirish inkubatori, kuniga 1000 litr sutni qabul qilish va qayta ishlash sexi, yiliga 3000 tonna mosh va 2000 tonna kunjut mahsulotini qayta ishlash, 400 tonna mevani quritish sexlari mavjud. 75 kishilik jamoa tomonidan tumandagi 37 ming xonadon tomorqasiga xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

Bugun Ellikqal'a tumani ahli tomorqasida ham shunday manzara hukmron: tomorqa, issiqxonada ish qizg'in pallaga kiriyapti. Xususan, “Cho'pon” mahalla fuqarolar yig'inidagi Ismoil Nurimov xonadoni yon-atrofi yashillikka burkangan. Gap shundaki, u bir necha yildan buyon 30 sotix yerda ko'chat yetishtirib keladi.

— Nafaqadaman, lekin bekor o'tirishni istamayman. Bog'imizda uzum, olma, nok, anor, anjir, shaftoli, bodom, yong'oq daraxtlari bor, — deydi Ismoil Nurimov. — Shu bilan birga, pomidor, bodring, karam, qalampir, tarvuz ko'chatlarini yetishtiramiz. Shuning ortidan har yili o'rtaqacha 250-300 million so'm daromad ko'ramiz. “Mehnatdan kelsa boyluk, turmush bo'lar chiroyli”, deyilganidek, o'tgan yil 350 ming tup ko'chat sotib, puliga yangi avtomobil xarid qildim.

Tomorqadan samarali foydalangan holda aholi daromadini oshirish hamda kambag'al oilalar bilan manzilli ishlash, obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish ishlarini faollashtirish maqsadida Qoraqalpog'istonda ayni paytda “Dolzarb bir oylik” safarbarligi doirasidagi ishlar boshlanib ketdi. Joylardagi og'ir sharoitdagi mahallalarni obod qilish, aholining tomorqadan samarali foydalanish ma-daniyatini oshirish maqsadida “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida ishlarni tashkil etilmoqda hamda fuqarolar tomonidan kooperatsiyalar tuzilmog'ya.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Bugun Ellikqal'a tumani ahli tomorqasida ham shunday manzara hukmron: tomorqa, issiqxonada ish qizg'in pallaga kiriyapti. Xususan, “Cho'pon” mahalla fuqarolar yig'inidagi Ismoil Nurimov xonadoni yon-atrofi yashillikka burkangan. Gap shundaki, u bir necha yildan buyon 30 sotix yerda ko'chat yetishtirib keladi.

Mamlakatimiz aholisining 10 million nafar chorvachilik ortidan daromad yaratadi, hayot kechiradi. Mana shu raqamning o'zidan anglash mumkinki, chorvachilikka jiddiy e'tibor qaratilishi kerak. Aytaylik, chorva boqish uchun yaylov yetarlimi, ularning ahvoli qay darajada?



Bugunning gapi

YAYLOVLARDAN QAY DARAJADA FOYDALANYAPMIZ?

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda yurtimizning 21 million gektar maydonini egallagan yaylovlarning 50-70 foizi turli darajada inqirozga uchragan. 11 million gektar yaylovning tabiiy ravishda yem-xashak berish salohiyati pasayib, yaroqsiz holatga kelib qolgan.

Yaylovda chorva mollarini almashlab boqish tizimi joriy etilmagani va ular soni keskin ortgani sababli yer katta bosim ostida qolgan. Oqibatda ozuqabop yem-xashak o'simlik turlari siyraklashib, yo'qolib ketish darajasiga yetgan. Bular, tabiiyki, yangi tashabbuslarni ilgari surishni, samarali choralar ko'rishni taqozo etadi. Shu bois, 4,2 million gektar yaylovda geobotanik tadqiqotlar o'tkazilib, degradatsiyaga uchragan maydonlar xaritalari tayyorlangan bo'lsa, degradatsiyaga uchragan 420 ming gektar yaylovni qayta tiklash va yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Veterinariya va chorvachilik sohasini har tomonlama rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bugungi kungacha Prezidentimizning sohaga oid 6 ta farmoni, 33 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 56 ta qarori qabul qilindi.

Sohani rivojlantirishda fan, ta'lim va ilmning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lanish ta'minlangan maqsadida “xo'jalikdan dasturxonagacha” tamoyili asosidagi mexanizm yo'lga qo'yilgan. Davlatimiz rahbarining joriy yil 30-yanvardagi “Yaylovlarni muhofaza qilish va ularning oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni sohani yanada rivojlantirish va yaylovlarni degradatsiyadan chiqarish, mavjudlardan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Xususan, hujjat asosida yaylovlarni boshqarishga oid vazifa va funksiyalarning Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish

qo'mitasiga berilgan sohada yagona vertikal boshqaruv tizimini amalga oshirishga imkon yaratadi.

Yaylovdan samarali foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish, qorako'lchilik, teri va jun sanoati sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etilgani yana bir muhim yangilik bo'ldi. Chunki ushbu komissiya qorako'lchilik tarmog'idagi muammolarni hal qilish, takliflar ishlab chiqish barobarida, yaylov ozuqabop ekinlar urug'chiligi rivojlantirishga doir chora-tadbirlar belgilashga mas'ul bo'ladi.

Komissiya, shuningdek, sohadagi ilmiy tadqiqotlar, innovation ishlarni va seleksiya-naslchilik ishlari natijalarini amaliyotga keng ko'lamda joriy etishga ko'maklashadi. Yaylovlarni boshqarish va monitoring qilishning institutsional asoslarini takomillashtirib boradi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqadi.

Farmon bilan yana bir muhim tizim joriy etilgani e'tiborga molik. Ya'ni yaylovlarga ijara huquqini olish uchun to'lanadigan mablag' operator xarajatlari chegirib tashlangan holda, Veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilib, uning alohida hisobi yuritiladi. Jamg'armaga kelib tushgan mablag' esa yaylovlarni degradatsiyadan chiqarish, yaylov urug'chiligi rivojlantirish va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirishga yo'naltiriladi.

Prezidentimiz farmoni chorvachilik xo'jaliklari uchun ham qator imtiyozlarni tuhfa etadi. Jumladan, yaylovlar 49 yilgacha ijara beriladi. Huddiy yaylov xo'jaliklarining doimiy foydalanishdagi maydonlari soliq solindigan bazaga kiritilmaydi.

Yaylovlar xalq ruziqining katta manbai. Ammo bugun ularning deyarli yarmidan foydalanilmayapti. Chunki yurtimizda yaylov

o'simliklari urug'chiligi rivojlanmagan, suv inshootlari va quduqlar yetishmaydi. Bunday maydonlarning xaritasi va ijaresi raqamlashtirilmagan. Farmon bilan yaylov yetim maydonlariga doir avtomatlashtirilgan “E-yaylov” elektron platformasi joriy etilishi eng to'g'ri va oqilona qarordir.

Ushbu serdaromad sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, shubhasiz, aholini sifatli, arzon go'sht va sut mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash hamda mahsulot narxini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, yurtimizda chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor.

Prezidentimiz tomonidan o'sha kuni imzolangan yana bir hujjat — “Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha go'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror soha rivojiga yanada turtki beradi. Qaror tufayli 2025-2026-yillarda xalqaro donorlar, jumladan, Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligidan yaylovlar degradatsiyasining oldini olish va qorako'lchilikni rivojlantirishga 50 million dollar jalb etilishi belgilandi.

2028-yil 1-yanvargacha qadar chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklari tomonidan davlat byudjetiga to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining 50 foizini har oyning 25-sanasiga qadar qaytarish tartibi joriy etiladi. Ushbu tartib ishlab chiqarilgan go'sht, sut, parranda go'shti hamda tuxumni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushum jami tovarlarni realizatsiya qilishdan olgan daromadning kamida 90 foizini tashkil qiladigan chorvachilik va parrandachilik

xo'jaliklariga nisbatan tatbiq qilinadi. Bu chorvadorlarimiz uchun juda katta imkoniyat va rag'batdir.

2025-yil yakuniga qadar 3 million 200 tonna tirik vazndagi go'sht, 13 million 200 tonna sut mahsulotlari olish rejasini belgilangan, parranda go'shtini 1 million tonnaga, tuxumni esa 10 milliard 500 million donnaga yetkazish vazifasi qo'yilgani aholini sifatli oziq-ovqat va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashga, narx-navo barqarorligiga imkon beradi.

Sirasini aytganda, chorvachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, sohani jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go'sht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

Ochig'i, fermer xo'jaliklari darajasida emasdi. Soha xo'jaliklarida ham sohada oid bilim va ko'nikmalar yetishmasligi tufayli ekin joylashtirish, yuqori hosil olishda imkoniyatlar boy berilardi. Mazkur hujjatlar esa yaylovlar samaradorligini oshirish, chorvachilikda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga xizmat qiladi.

Risqul SIDDIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi a'zosi



“CHINOR PLYUS — 2020” MARKAZI

U RISHTONDA KATTA O'ZGARISHLARGA SABAB BO'LMOQDA

Rishton tumanidagi “Oq yer” mahalla fuqarolar yig'ini hududida ish boshlagan “Chinor plyus — 2020” kulollik va turizm markaziga kelgan mehmonlarni qo'l-oyog'i chaqqon, shirinsuxan ishchi-xizmatchilar “Siz izzatda, biz xizmatda”, deya kutib oladi. Xizmat ko'rsatish tarmog'i mehmonu sayyohlar bilan hamisha gavjum, fayzli.

“Faol tadbirkor” ko'krak nishoni sohibi Islomjon Orifjonov tashabbusi bilan qurilgan mahallada kulollik ustaxonasi, savdo shoxobchasi, mehmonxona, restoran, milliy taomlar oshxonasi, sauna, cho'milish havzasi kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlari bor. Bu yerga kelganlar soz topqandan ajoyibot yasayotgan kulollar faoliyati, mashhur Cho'ng'ara guruchidan osh tayyorlash sirlari bilan yaqindan tanishishi, jarayonda bevosita ishtirok etishi mumkin.

Umumiy qiymati 55 milliard so'mlik investitsiya yo'naltirilib, mingdan ortiq yangi ish o'chi oldi. Elik o'rinni zamonaviy mehmonxona yil davomida 9 mingdan ortiq mehmonlarga xizmat ko'rsatadi.

— Prezidentimiz ishtirokida joriy yil 7-fevral kuni o'tkazilgan videoselektorada hududlarda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish bilan bog'liq ish ko'lamini yanada kengaytirish, imkoniyatlardan samarali foydalanish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, orqali xizmat ko'rsatish ko'lamini va sifatini oshirish yuzasidan bildirgan o'rinni taklif va mulohazalari ishida yangi imkoniyat eshiklarini ochdi, — deydi tuman hokimining birinchi o'rinborsari Doniyor Rahmonqulov. — Uch yil oldin soha bo'yicha katta dastur ishlab chiqilgani bugun o'z natijasini beryapti, albatta. Shu kungacha qadar tumandagi 12 ta mahalla fuqarolar yig'inini turizm mahallasiga aylantirish, savdo, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish bo'yicha “yo'l xaritasi” ishlab chiqilgan. O'tgan yilning o'zida yo'l bo'ylarida savdo va ko'ngilochar maskanlar, gastronomik, turizm va san'at yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan umumiy qiymati 288,8 milliard so'mlik 77 ta xizmat ko'rsatish tarmog'i ishga tushirilib, xizmat ko'rsatish qiymati 852,9 milliard so'mga yetdi.

Bu avvalgi yillarga qiyoslaganda, 112,7 foiz ko'p. Joriy yilda barcha yo'nalishtirish 142 ta xizmat ko'rsatish loyihasi ishga tushirildi. Asosiy maqsad xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish, ishsizlarni kasb-hunarga o'rgatib, mablag' va sharoit bilan ta'minlashdir.

Burhoniddin ar-Roshidoniyo ko'chasi tuman markazi bo'yab o'tgan eng uzun ko'cha. U aholi va transport qatnovi uchun juda qulay. Asosiy harakat shu yo'l bo'yab amalga oshiriladi. Keyingi uch yilda bu yerda yuzdan ortiq oziq-ovqat va xo'jalik mollari, kulollik mahsulotlari o'kon, eshik-rom ustaxonasi, kompyuter xizmati ko'rsatish shoxobchasi, satarsohxona, dorixonasi, stomatologiya, tibbiy diagnostika, qassobxonasi, oshxonasi, pishiriqlar tayyorlash, fotostudiya, ayollar go'zallik va kelin liboslari saloni, avtomobilarga xizmat ko'rsatish, yonilg'i quyish shoxobchalari singari o'nlab xizmat ko'rsatish tarmoqlari ishga tushirildi.

— Tuman markazidan o'n chaqirim olishda yashaymiz, — deydi mehnat faxriysi Olimjon Boyboboyev. — Bundan uch-to'rt yil avval odiy buyumlar xarid qilish yoki soch oldirish, dori-darmon uchun markazga borishga majbur edim. Endi bunga zarurat qolmadi. Mahallamizning o'zida savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ochilib, uzog'imiz yaqin, og'irimiz yengil bo'lyapti. Bundan tashqari, mahallamiz chiroy ochdi. Loyiha tashabbuskorlari sa'y-harakati bilan turgan yoritqichlar o'rnatildi, yo'llar ta'mirlanib, obod bo'ldi. Piyodalar yo'laklari yotqizildi, bekatlar qurildi. Bundan barcha bahramand.

Rishton kulollik an'analarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga e'tibor oshishi natijasida turizm tarmoqlari rivojlandi, yangi sayyohlik yo'nalishlari ochildi. Tarixiy obidalar, milliy hunarmandlik va xalq amaliy san'ati namunalarini targ'ib qilish bilan bog'liq shart-sharoitlar kengaytirildi.

O'tgan yilning o'zida ichki va tashqi turizm yo'nalishlari bo'yicha 2 milliondan ortiq mehmon keldi. Sayyohlikning yangi turlari — ektoturizm, agroturizm, etnoturizm, sport turizmi, qishloq turizmi va tibbiyot turizmi yo'nalishlarini tashkil etish borasida istiqbolli loyihalar amalga oshirildi. Rossiya,

Italiya, Fransiya, AQSH, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Ukraina, Latviya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgani sayyohlik salohiyati va xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirish imkonini bermog'ya.

— Yaqingacha tuman markazida odiy mehmonxona yo'q edi, — deydi Farg'ona viloyati turizm boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Bahodir Ermatov. — Keyingi uch yilda bu boradagi ishlar salmog'i sezilarli oshdi. Shu kungacha qadar 2 ta zamonaviy mehmonxona, 2 ta xostel, 30 dan ortiq oilaviy mehmon uyi ochildi. Oilaviy mehmon uylariga talab kundan kunga ortib bormog'ya. Xorijlik sayyohlar o'zbekona jihatlangan xonadonlarda yashashni afzal ko'rmog'ya. Ular xalqimizning kundalik turmushi, urf-odatlarini, oilaviy an'analari haqida ko'proq bilishni istaydi. Shu maqsadda “Oltin vodiyo” uch kunlik sayohat dasturi ishlab chiqildi. Sayyohlarga “Xalqaro kulolchilik markazi”dagi ustalarining amaliy ish jarayoni, “Jalayer” mahalla fuqarolar yig'inida kulol Tohir Haydarov ustaxonasi va muzeyi, “Uch ariq” mahalla fuqarolar yig'inida milliy osh markazlari faoliyati bilan tanishish imkoniyati taqdim etilmog'ya.

Yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Farg'ona — Qo'qon xalqaro avtomobil yo'li atrofida yangi xizmat ko'rsatish loyihalari qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, qutlug' qadamjo va ziyoratgohlarni ta'mirlash, ular haqida to'laqonli ma'lumotlar to'plash, ziyoratchilar uchun zarur shart-sharoit yaratish, targ'ib qilishga e'tibor oshdi. Shu kungacha qadar Sohibi Hidoya, Xo'ja Rushtoniy, Xo'ja Ilg'or, Mulla Ismatulloh qori va Yigitpirim ziyoratgohlarida ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari bajarildi.

Xo'ja Ilg'or va Mulla Ismatulloh qori ziyoratgohlari o'ziga xos me'morchilik ansambliga ega. Majmua XIX asrda shu yerlik taniqli shaxs Xo'ja Ilg'or sharafiga qurilgan. Bu yerda masjid, maqbara, chilla-xona, g'or hozirga qadar saqlanib qolgan. Davlat muhofazasiga olingan binoning peshtoqlari, ustun va tom qismiga Farg'ona uslubiga xos naqshlar ishlangan. Unda yondosh Mulla Ismatulloh qori maqbarasi, chuqurliqi 3-4 metrlig'or, qachonlardir talabalar uchun boshpana vazifasini o'tagan hujra va chilla-xona keluvchilar e'tiborini tortadi. Bir asrdiki, huddaga salqin havo, tabiiy mo'tadilik bag'ishlab turgan tup daraxti o'shiddan to'xtagan yo'q.

— Bugun Burhoniddin ar-Roshidoniyo (Sohibi Hidoya) ziyoratgohini turizm maskaniga aylantirish borasida ishlar bajaril-yapti, — deydi Rishton tumani hokimligi axborot xizmati rahbari Abror Dehqonov. — Bu yerda umumiy qiymati 44 milliard so'mlik loyiha amalga oshirildi. Majmua g'etuvchi 3 kilometrlig' yo'l yoqasida tun tun ishlaydigan ko'ngilochar maskanlar qurildi. Ziyoratgohga olib kiruvchi ko'cha boshida “VIP CONSTRUCTION PLAS” MCHJga tegishli eski bino va inshootlar o'rinda ko'p qavatli “Dahbed al-hidoya” turar joy majmuasi qurilishi boshlandi. Binoning 1-2-qavatlarida umumiy maydoni 5918 kvadrat metrlig' xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlar faoliyat yuritadi. “Chinnigoron” mahalla fuqarolar yig'ini tematik mahalla sifatida tanlab olindi. Bu yerda kulollar sulolasining 11-avlodi yashab, ijod qilib keladi. Mehmonlar uchun asosiy ko'chaning kirishidan Sohibi Hidoya ziyoratgohigacha bo'lgan 1,5 kilometr yo'ldagi kulollarning amaliy ish jarayoni bilan tanishib, ziyoratgohga chiqish imkoniyati yaratilmog'ya.

Xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish, sifatini yaxshilash borasidagi islohotlar ko'hna maskanga yangi hayot, farovonlik olib kelmoqda. Yo'lingiz tushib, bu yerlarga kelsangiz, qo'lini ko'ksiga qo'rgan rishtonliklar xizmatidan bahramand bo'lasiz.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

BU AYOL ODDIY AYOL EMAS

Intizorning o'g'il tuqqani oila a'zolarini qanchalar xursand qilgan bo'lsa, chaqaloqning yuragida nuqsoni borligi ularni o'n karra ranjitdi. Ayolga kun bermay qo'yishdi... O'sha tong bosinqirab uyg'ondi: qarasa, chaqalog'i yo'q. Qulog'iga chinqiriq ovozi eshitildi. Yuragini hovuchlab, eshikka yugurdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, uydagilari chaqaloqni qorga ulotqirgan. Insoniylik qiyofasini yo'qtogan bu kimsalar "Bizga kasal bola kerak emas! Undan qutulganimiz yaxshi!" deya onaizor yo'lini to'sdi. Juvon erining qo'lidani sirg'alib chiqib, hovliga otiladi. Tinimsiz big'illayotgan go'dagini bag'riga bosdi. Darg'azab er uni uydan haydadi.

Ayol ota uyiga ikki kun ham sig'madi. Ona-bola ko'chada qoldi. Huquq-tartibot organi xodimlari ularni ichki ishlar bo'limiga, boshpanasi yo'qligi ma'lum bo'lgach, Buxoro viloyati "Oydin nur" oilani ijtimoiy, huquqiy himoyalash markaziga olib keldi. Bu yerda unga qismatdosh bo'lgan ayollar anchagina ekan. Markaz rahbari bu ayolning yuridik va ijtimoiy muammolari hal bo'lganicha qancha vaqt hamda kuch talab etilgan bo'lsa, oxirigacha uning yonida turdi. Fursat o'tib, u o'zini o'nglab oldi. Ishli bo'ldi, keyin esa uyli. Taqdir uni baxt bilan siyladi: yana turmush qurdi. Turmush o'rtog'i ziyoli, uni qadrlaydigan inson chiqdi. O'g'lini ham operatsiya qildirishdi. Ayol jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam bergan yaxshilardan minnatdor.

Jamoatchilik asosidagi ish

Mavluda Solihova umrining o'ttiz yilini ta'limga bag'ishladi. Faoliyatini o'rta maktabda oddiy o'qituvchilikdan boshlab, oliyohg kafedra mudirligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 15 yil Buxoro davlat universitetida pedagogika va psixologiya kafedrasini boshqardi. O'sha davrlarda psixolog sifatida sud-tibbiy ekspertizasi jarayonlarida qatnashar ekan, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ko'plab taqdirlar bilan ro'para keldi. Bir seminaridagi ishtirok uning ruhiyatida keskin burilish yasadi. Inson huquqlari, ayollar manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi shuncha hujjatlar bor ekan, xalqaro tajribada esa o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar alaqachon ommalashgan bo'lsa, men nega qarab turibman, degan savol uni hushyor tortirdi. Shu bo'ldi-yu, qahramonimiz 1999-yilda "Oydin nur" oilani ijtimoiy, huquqiy himoyalash markazini tashkil etdi.

Ochig'ini aytish kerak, mazkur nodavlat notijorat tashkilotning bugungi darajaga yetishi oson kechmagan. Buning uchun qahramonimiz universitetdagi ishini tashlashga majbur bo'ldi. Vaholanki, jamoatchilik asosidagi bu

ish manfaatdan xoli bo'lib, mudom kemtik ko'ngillar tashvishida yugur-yugurlarni va fidoyilikni talab etardi. Dastlab viloyatdagi bir tashkilotdan xona ijaraga olinib, u yerda huquqiy maslahatxona tashkil etildi. "Ishonch telefoni" orqali bo'lgan murojaatlarga huquqiy maslahatlar berdi.

Soxta janjal uyushtirganlar ham bo'ldi

Psixologik, huquqiy va ijtimoiy xizmatlar to'g'ri yo'lga qo'yilishi natijasida markaz jabrdiydalar uchun shunchaki boshpana vazifasini bajarmay, sudlarda ham himoyadagi ayollar foydasiga qarorlar chiqartirishga erisha boshladi. Vaholanki, zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollarning turmush o'rtog'lar tomonidan sud ishiga aralashuvlar, mansabdor shaxslar orqali ta'sir o'tkazishga urinishlar ko'p kuzatilgan. Shunga qaramay, markaz fidoyilari chekinmadi. Puli va tanish-bilishi ko'p, "mo'ylovini bolta chopmaydigan" zo'ravon erlardan mazlumalarga farzandlarini, ulushini va aliment pullarini olib berishga erishildi. Amalda qonun borligini, ayollar undan foydalana olishi mumkinligini isbotlashdi.

Boqimandalik kayfiyatidagilar hali ham borligi achinarli. Boshpanasiz qolgan ayollarga uy olib berishga erishayotgan markazning yutuqlaridan xabar topgan ayrim kimsalar bundan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan. Er-xotinning soxta mojarosini uyushtirib, jabrdiyda ro'lida uyli bo'lmoqchi bo'lganlar fosh etilgan.

Sabr hamma narsaga rozi bo'lishni anglatmaydi

Davlatga, insonlarga foydasi tegishi mumkin bo'lgan ayolni uyga "qamab qo'yish" nafaqat adolatsizlik, balki jamiyat rivojiga urilgan bolta hamdir. Natijada esa oila ham, jamiyat ham rivojlanmaydi. Ha, sabr yaxshi fazilat. Mashaqqatlar oldida sobit turish, qiyinchiliklarni

yostiqdoshi bilan yelkama-yelka turib yengish matonatli ayollarga xos. Lekin sabr degani hamma narsaga rozi bo'lish, xo'rlik, kamtilish va ayolning sog'lig'iniyu kelajagini barbod qilish degani emas.

Olis tumandan og'ir yashash jarohati bilan Respublika shoshilinch tibbiy yordam markaziga bir juvon keltirildi. Oiladagi surunkali ruhiy va jismoniy tazyiqlar oqibatida ayol o'z joniga suiqasd qilgan edi. Psixologlar bilan suhbatdan



ayon bo'ldiki, ahvol shu darajaga yetib borishiga qaynona va erining ruhiy bosimlari sabab bo'lgan. O'tirsa ham, tursa ham "O'z joningacha hali ham qasd qilmadingmi?" degan kesatiq so'zlarni aytib, ayolning ongini zaharlashgan. Sabr kosasi to'lgan juvon jahli ustida o'ziga o't qo'yib yuborganini bilmay qolgan.

Uni shu darajaga olib kelgan odamlar uchun qonun borligi, agar istasa, tegishli idoralarga ariza bilan murojaat qilib, ularni javobgarlikka tortirish mumkinligi tushuntirildi. Ammo kelinchakning yaqinlari bunga qarshi chiqadi. O'shanda ayolning otasi "Qizimmi yo'ldan urmang, u ariza yozmaydi! Uning oilasini buzmoqchimisiz?" deya qarshilik qilgan. Afsuski, jabrdiyda bir necha kun o'tib, kasalxonada vafot etdi.

Tanganing ikki tomoni

Faoliyat davomidagi tahlillar ko'rsatdiki, oilalarda tug'ishganlaridan erta ayrilgan, nogiron yoki ota-onasining "qo'li kalta" kelinlar boshqa ayollarga nisbatan ko'proq taqdirga, kamtilishlarga nishon bo'ladi. Chunki har qanday vaziyatda ham ular xorliklarga chidashga

majbur, zulmga qismat deb qarashga mahkum. Oilada ko'plashib bir kishiga tinimsiz tazyiqlar ko'rsatish, uni kaltaklash amaliyotida ko'p kuzatilgan.

Tanganing ikki tomoni bor, hayotga tayyor bo'lmay turib turmushga chiqqan, yoshlik qilib, ikki oilaning notinch bo'lishiga sababchi bo'lganlar bor. Ruhiiy emotsional holatida jiddiy buzilishlar bilan kelganlar ham uchragan. Bunday toifalar tanqid u yugda tursin, u ariza yozmaydi! Uning oilasini buzmoqchi bo'lganlar bor. Ruhiiy emotsional holatida jiddiy buzilishlar bilan kelganlar ham uchragan. Bunday toifalar tanqid u yugda tursin, u ariza yozmaydi! Uning oilasini buzmoqchi bo'lganlar bor. Ruhiiy emotsional holatida jiddiy buzilishlar bilan kelganlar ham uchragan. Bunday toifalar tanqid u yugda tursin, u ariza yozmaydi! Uning oilasini buzmoqchi bo'lganlar bor.

Prezident portaliga murojaatdan so'ng markazni yopishga urinish to'xtagan

O'sha kezlalr shahar hokimi qaror chiqarib, bir paytlar obodonlashtirish boshqarmasi balansida bo'lgan kattagina hovlini "Oydin nur"ga xatlab berdi. Ammo bu yerda hali yashash uchun munosib sharoit yo'q edi, hovli va uning inshootlari "tegma, to'kilaman" qabilida abgor edi. Bu yerda bugungidek manzara hosil bo'lishi uchun yillar kerak bo'ldi. Homyilar topilib, ta'mirlash ishlari bajarildi. Bir so'z bilan aytganda, ayollar boshpanasi uchun munosib sharoitlar yaratildi. Ammo aholi tomonidan faoliyatga to'sqinliklar, hududni surbetlaracha o'zlashtirishlar to'xtamadi. Ba'zi odamlar bu yerdagi ishlarni negadir hazm qila olmadi. Kimlarningdir aralashuvi bilan markazni yopishga faol harakatlar boshlanib ketdi. Prezident portaliga murojaatdan so'ng bu tajovuzlar to'xtagan.

Minglab xotin-qizlarning muammolarini hal etish, ularning dardi bilan yashash oson kechgani yo'q. Bu Mavluda ayaning sog'lig'iga ta'sir o'tkazmay qo'ymadi. Yurak xurujini boshidan o'tkazdi. U qattiq tushkunlikka tushib qoldi. Nahotki, 20 yillik urinishlarim mendan keyin barbod bo'lsa degan iztirobli xayollar unga tinchlik bermay qo'ydi. Yo'q, unday bo'lmadi. Yordamga xorijda yashab yurgan qizi Shahnoza keldi. "Onajon, siz uchun hammasidan voz kechib keldim. Menga sog'lig'ingiz kerak. Xotirjam bo'ling, Xudo xohlarsa, markaz hali yashaydi", dedi. 2019-yilda qizi Shahnoza tashkilot rahbarligini qabul qilib oldi. Hozir onaxon bu yerda ekspert sifatida yoshlarga bilim va tajribasini ulashib kelayotir.

"Osonroq ish topib bering!"

Shundoqqina yonlarida novvoyxona bor. Har tong xotin-qizlarga issiq non, taom pishirishlari uchun masalliq beriladi. Zarurat tug'ilsa, dori-darmon bilan ta'minlanadi. Hech bir ayol bir burda nonni qayerdan topsam ekan, degan tashvish bilan yonmaydi. Asosiy, ishlab topgan pulini jamg'arish va kun kelib, ularni yaxshi kunlarida ishlatish imkoniyatiga ega. Ko'plab grant va loyihalar doirasida ularni daromadli ishlarga jalb etishga erishildi. Buning uchun talab etiladigan jihaz va uskunalar olib berildi.

Qo'lida bog'cha yoshiga ham yetmagan bolasi bilan kelgan ayollar farzandidan ayro holda bir joyda ishlash yoki o'quv kurslariga qatnash

imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Markazning o'zida ular uchun kasb-hunarga o'rgatish xonasi tashkil etilgan bo'lib, 4-5 oy davomida shu yerda yashab, pishiriq pishirish, tikuvchilik kabi hunarlarni o'zlashtiradi. Shuning ortidan o'zini tiklab olganlar ham talaygina.

Masalaning yana bir jihati borki, bu yerga keladigan xotin-qizlarning hammasi ham qunt bilan o'rganiladigan va hafsala bilan bajariladigan ishlarga rag'bat bildiravermaydi. Aksariyati idish-tovoq yuvadigan ishga joylashtirib qo'yishni so'raydi. Vaholanki, kasb-hunarli bo'lganlari boshqalariga qaraganda o'zlarini tezroq tiklab olgani ham bor gap.

Har yili 150 nafardan ortiq ayol farzandlari bilan shu yerda yashab, muammosiga yechim topib ketadi. O'tgan davr kesimida esa taxminan 15 mingdan ortiq xotin-qiz markazdan boshpana topgan. Huquqiy va psixologik yordam olganlarning esa son-sanog'i yo'q. Bu yerda 2 yildan ko'proq qolib ketganlar ham, muammosi hal bo'lib, bir kunda uyiga qaytganlar ham bo'lgan. Ayolsiz uning fayzi bo'lmasligini tushunib yetganlar uzrini aytib, xotinini olib ketgan. Boshqalari... Markazga nafaqat viloyatdan, balki respublikaning boshqa hududlaridan ham ayollar yordam so'rab murojaat qilgan. Ularga yuzdan Prezidentimizning 2024-yil 10-maydagi "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida ko'mak ko'rsatilmoqda va gender tenglik siyosatiga ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Munosib e'tirof

Davlatimiz rahbarining joriy yil 4-martdagi "8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga asosan, turli sohalarida fidoyilik ko'rsatayotgan bir guruh xotin-qizlar mukofotlandi. Ular orasida Mavluda Solihova ham bor. U mamlakatimizning yuksak mukofoti — "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Bolaligimdan yaxshi eslayman, onaning tabiatida hashamatga intilish bo'lmagani. Imkoniyati bo'lsa ham qimmat taqinchoqlar taqib yurishni, po'rim kiyimlarda e'tiborni tortishni istamaydi. Uning mashaqqatlar oldida egilmasligi bizni ruhlantirgan, — deydi "Oydin nur" oilani ijtimoiy, huquqiy himoyalash markazi rahbari Shahnoza Ixtiyorova.

Mavluda aya Solihova bugun 76 yoshda. Subhatga kirishimligi, doimo kulib turgan nurl chehrasi sizda iliq taassurot qoldirdi. U bilan suhbatlashib zavq olasiz, aslo zerikmaydiz. Kichik jussada shunchalar g'ayrat qayerdan deb hayron qolasiz. Yuzma-yuz bo'lsangiz, o'zingizni go'yo oddiy ayol bilan emas, dardingizni olmoqqa astoydil kirishgan shifokor qarshisida turgandek his etasiz.

Hamzabek TURDIYEV,
jurnalist

Ekofaol yoshlar

Poytaxtning bir chetida joylashgan Toshkent kimyo xalqaro universitetiga hech ishingiz tushganmi? Mabodo yo'lingiz tushib va yana yayov yurgan bo'lsangiz, "Olmazor" metro bekati yonidan ushbu oliyohgga olib boradigan yo'lakning ahvolini ko'rgandirsiz. Yoshlar sevib iste'mol qiladigan fast-fud qadoqlari, energetik va turli gazli ichimlik idishlari qalashib ketgan. Nomini ham aytishga tilingiz bormaydigan ba'zi bir chiqindilarni ko'rib, o'tib-qaytuvchilargina emas, ayrim xo'jaliklar ham shu yerga chiqindi tashlab ketadimi deb o'ylaysiz. Darvoqe, ko'ngilni behuzur, ta'bnii xira qiladigan shu yo'lakdan yana bir xususiy oliyohg (UBS)ning yuzlab talabalari o'tib qaytadi. Aksariyati falon pulli telefoni, qimmatbaho libosi bilan zamonaviy va madaniyatli bo'lgan yigit-qizlar biz namuna qilmoqchi bo'lganimiz — kamtargina tengdoshining ustidan kulishi ham tabiiy.

"Savob uchun shunday qildim"

Ne ko'z bilan ko'raymki, bir kuni hech qachon chiqindidan xoli ko'rmanim yuqorida aytganimiz o'sha yo'lak top-toza supurilib, chiqindilar har yer-har yerga yig'ib qo'yilibdi. Ko'rinishidan 19-20 yoshlar atrofidagi bir qiz qo'lida supurgi bilan ularni katta polietilen xaltalarga solishga chog'lanib turgan ekan. Qiziq, bunday savobli ishga uni kim yollabdi yoki qaysi bir vijdonli bu yo'lakning chiqindixonaga aylanib ketayotganidan hushyor tortdi ekan? Shu savollarga javob olish istagi mazkur maqolani yozishga turki bo'ldi.

O'zini Sevara deb tanishtirgan qiz shu yaqin atrofda ijarada turishi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi ekanini aytdi. Qizig'i, u har kuni bu yerdan o'tmaydi.

— Bu yo'lak sevimli kutubxonamga olib boradi. To'g'ri, bu yo'ldan kam yuraman, — dedi Sevara. — Lekin uning chiqindiga to'lib ketganiga chiday olmadim. Avvaliga obodonlashtirish xodimlari tozalasa kerak deb o'yladim. Ularni ko'ravermaganimdan keyin o'zim shu ishga kirishdim. Ona zaminga joni bor deb munosabatda bo'lishim shart. Chunki Yer o'z yuzidagi iflosliklardan jirkanib, mulzam bo'lib yotsa-da, bironva ayta olmaydi. Uning yuzini tozalashda katta savob borligini yoshi ulug'onaxonlardan ko'p eshitganman. Qolaversa, bu yo'l masjidda ham olib boradi. Pok holda uyidan chiqqan odamlarning ko'zi

yomon narsalarga tushmasligi, chiqindilar oralay yurmasligini istardim. Savob uchun shunday qildim.

O'sha kuni top-toza yo'lakni suratga olganimda, yo'l chetidagi yangi, kattagina chelakni ko'magandim. "Chiqindi uchun" deb yozilgan bu chelak ertasi kuni qo'yilibdi. Shu ham Sevaraning ishi ekanini taxmin qildim. Talabaning aytishicha, uning bu savobli ishidan xursand bo'lgan bir ayol qo'yarda-qo'yamay cho'ntagiga pul solib ketibdi: "Qarasam, chiqindi tashlab uchun kattagina chelak sotib olishimga yetar ekan. Zora, ko'rganlar chiqindilarini shunga tashlasa".

Agar atrof zulmat bo'lsa, sen zulmatdagi mayoq bo'l deb bejiz aytilmagan. Shu tobdla talaba qiz ko'zimga zulmat ichra porlagan mayoq bo'lib ko'rindi. Talaba holiqa uning maxsus chiqindi xaltalar chelak sotib olgani ham, har qanday o'flitgarchilikni chetga surib, ko'chani tozalagan ham shaxsiy ibratning eng go'zal ko'rinishi. Zero, bugun ayni shunday masalalarda shaxsiy namuna ko'rsatib, atrofini yoritishdek eguzlik ko'pchiligimizga erish tuyuladi. Biroq atrof-muhitni asrashda shaxsiy daxldorlikni oshirish kun talabiga aylanganini har birimiz his qilishimiz kerak.

Ekofaol yoshlar birlashmoqda

Aytganimizdek, jamiyatimizda tabiatga do'stona munosabatda bo'lish ko'nikmasi yetarlicha shakllanmagan. Umidbaxshlik shuki, tabiatga yordam berish istagidagi ekofaol yoshlar safi kengayib boryapti. Endi

YO'LAKNI TOZALAYOTGAN TALABA QIZ IQLIM O'ZGARMOQDA,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

BIZ HAM O'ZGARAYLIK

shunday yo'l tutmaslikning imkoni ham yo'q, aslida. Dunyoda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar kundun kunga insoniyat boshiga yangi-yangi xavflarni solyapti. Davlatimiz rahbari bu haqda jahon minbarlarida kuyinib gapiryotgani, yashillikni ko'paytirishga jiddiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Bu masalaning nechoq'liq muhimligini his etgan har bir shaxs "millionlarning biri menman" degan o'y ila atrof-muhit haqida qayg'u'rishi shart. Ayni o'y, ayni tushuncha yoshlarimizda ko'proq uyg'onishi darkor.

Shu ma'nada, Sevaradek yoshlar o'zi qilayotgan ezo ishdan ruhlaniishi, boshqalarni ham ortidan ergashtirishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash, munosib rag'batlantirish zarur. Prezidentimizning 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqoti chog'ida yigit-qizlarda tabiatga mehmi oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlanishi aytib o'tildi. O'yilaymizki, bu ko'plab yoshlarda tabiat himoyachisi bo'lish, ekologiyani asrashga hissa qo'shish istagini kuchaytiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan edi. Unda atrof-

muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, ekologik madaniyatni oshirish kabi o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi belgilangan.

Mutasaddilarning aytishicha, o'tgan yilda O'zbekistonda ekologiya va turizm sohasiga oid tadbirlarda 2,5 millionga yaqin ekofaol yosh ishtirok etgan. Yil davomida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'tkazilgan tadbirlarda 800 mingga yaqin ekofaol va volontyor qatnashgan. "Mahalla obod — yurt obod" shiori ostidagi "Ekoturizm" aksiyalarida obodonlashtirish ishlarga, tabiatni asrashga hissa qo'shishga bel bog'lagan yoshlar katta-katta ishlarga qodir. Ular hasharning milliy qadriyatimiz ekanini, unda birdamlik, mehr-oqibat uyg'onishini anglab yetmoqda. Saranjom yerda tabiat manzaralaridan bahra olish ularda hasharlarga muntazam qatnashish istagini uyg'otadi. Umuman olganda, yosh ekofaollarning bir maqsad yo'lida birlashayotgani quvonarli. Ular bugun turli tadbirlar, forumlar o'tkazmoqda. Bunday yig'inlarda yosh ekofaollar qator tashabbuslar bilan chiqayotgani quvonarli. Xususan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza

qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Yoshlar qo'mitasini tashkil etish yoki ishga joylashtirish va universitetga kirish vaqtida ekofaollikni hisobga olish kabi takliflar ilgari surilyapti. Bundan tashqari, yo'qolgan o'simliklarning o'rni qoplash, ekostartaplarni moliyalashtirish orqali zararli chiqindilarni kamaytirish kabi jo'yali fikrlarni ilgari surmoqda.

Bu yoshlar ham o'zimiz tarbiyalagan, ulg'aytirayotgan yangi avlod vakillari. Zotan, qonimizda atrof-muhitga qayg'u'rish tuyg'usi bor. Sharqona tarbiya muhitidan nafas olgan yoshlarda uyg'oq fikr, tashabbuslar yanada rivoj topayotgani ularning "yashil" loyihalarda aks etmoqda.

Buni yakunlangan yilda Shahrisabzda o'tkazilgan "Yoshlar — kelajak bunyodkorlari!" III ekologiya va turizm xalqaro qurultoyi doirasidagi "Eng yaxshi ekologik loyiha" tanlovi ham yaqqol ko'rsatdi. Unda 18-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar "10 ta daraxt — bitta kitob", "Ekomolekula", "O'zbekiston oqar suvlarini tozalashga inqilobiy yondashuv", "Ekolaboratoriya", "Bataryka.uz" kabi ekologiyalar bilan qatnashdi. Bu loyihalar iqlim o'zgarishini yaxshilash, daraxtzorlarni

ko'paytirish, chiqindining atrof-muhitga zararini kamaytirib, ularni qayta ishlash kabi maqsadlarga qaratilgan.

Ekofaollik qobiliyati ancha shakllangan yoshlarning "Iqlim o'zgarimoqda, nega biz o'zgarmayapmiz?", "Kelajagimizni asrang", "Yonilg'irlarni to'xtating", "Keling, yashillashaylik", "Sayorani qutqaring" kabi chaqiriqlari mazkur masala yechimi atrofida barchani birlashtirishga qaratilgan. Agar bu to'la amalga ohsa, atrof-muhitni muhofazalashga yoshlarni keng jalb qilish orqali kelajak avlodga toza va sog'lom muhitni meros qoldirish imkoni kengayadi. Zero, yoshlar tabiatni asrashning innovatsion va zamonaviy usullarini yaratadi. Ekologik muammolarni hal qilish uchun yangi texnologiyalar va ijodiy g'oyalarni ishlab chiqishdan zavqlanadi. Qisqa qilib aytganda, yoshlar jamiyatda ekologik madaniyat va mas'uliyatni oshirishda katta rol o'ynaydi.

Qolaversa, endi ular katta kuchga aylanishi barobarida "Ekofaol fuqaro" maqomini olib, davlat xizmatlaridan foydalanishda, iste'mol kreditlari foiz stavkasida chegirimalarga ega bo'ladi. Yashillik tarafdorlari velosiped, skuter kabi ekologik transport vositalariga ega bo'lsa, qanday yaxshi! "Yashil oila" maqomiga ega bo'lganlar esa elektromobil yutib olishi mumkin.

Aslida, shundoq ham o'zimiz uchun foydali bunday ishlarni shu darajada ko'lash, rag'batlantirishdan xulosa chiqarishimiz kerak. Kichik yoshdagi bolamizdan tortib, o'zimizgacha tabiatga munosabatimizni tubdan o'zgartiradigan pallaga yetib keldik. Bola boshidan deganlaridek, yuqorida e'tirof etilgan tabiatevra yoshlarning ekologiyaga hurmati ham aslida o'zlashtirishga. Yoshgina niholni qayoqqa egsang, egiladi. O'zini tutib olgan daraxtni esa qimirlatish qiyin. Shunday ekan, bolalarimiz aqlini tanishi bilan ekologik tarbiyani o'rgataylik. Avvalo, o'zimiz o'tnak bo'lishga harakat qilaylik.

Darvoqe, O'zbekistonda ilk bor "Yashil makon" multiseriالي yaratilyapti. Mazkur multiseriالي xalqaro animatsiya sifatida bilan raqobatlasha olishi kutilmoqda. MDH davlatlari orasida birinchi bor ekologiyaga bag'ishlab tayyorlanayotgan multiseriالي farzandlarimizni ekofaol etib tarbiyalashimizda muhim o'rin tutsa ajab emas. Chunonchi, uning asosiy maqsadi bolalarimizga kichikligidan tabiatni asrash, uning behabo ne'mat ekanini tushuntirish va u bilan to'g'ri munosabat qilishni o'rgatishdir.

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official




yuz.uz_news



yuz

Boqiy qadriyat



BU MENING VATANIM!

FRANSUZ FOTOGRAFI POL NADAR "TEMIR DARVOZA"NI SURATGA OLISH TARIXI QANDAY BO'LGAN?

Parijga rasmiy tashrifi chog'ida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron sovg'a qilgan, mashhur fotograf Pol Nadar tomonidan XIX asr oxirlarida ishlangan suratni qabul qilgan ekan, itifox bilan "Bu mening Vatanim!" dedi.

Televizor ekranlarida, internet sahifalari orqali ushbu voqeani kuzatganlarning ko'pchiligini Prezidentimiz itifox bilan "Bu mening Vatanim!" deb qabul qilgan suratda yurtimizning qaysi manzili aks ettirilgan, Pol Nadarning kimligi qiziqirishi tabiiy.

Prezident tuhfasi Jizzax viloyati hududidagi Nurota va Morguzar tog' tizmalarini bir-biridan ajratib turuvchi Ilon o'ti darasining eng tor joyidagi "Temir darvoza" deb ataluvchi tabiiy yodgorligining fotosurati edi. Ushbu suratni Pol Nadar bundan 135 yil avval — 1890-yilda Turkistonga sayyoh sifatida kelgan payti tushirgan.

Jahon fotografiyasi tarixida o'lmas asarlari bilan iz qoldirgan buyuk fransuz fotografi Pol Nadar nomi Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston uchun unchalik notanish emas.

Fotografik Pol Nadarning otameros kasbi edi. U XIX asrning buyuk yozuvchilari, shoirlari, siyosiy arboblari, faylasuflari va donishmandlari fotoportretlarini yaratib, Nadar taxallusi bilan jahonga tanilgan fransuz fotografi Gaspar Felix Turnashon oilasida 1856-yilda Parijda tug'ilgan.

Pol Nadar 1874-yildan otasining studiyasida ishlay boshlaydi. U 1890-yilda Toshkentda o'tkazilgan jahon fotoko'rgazmasiga o'z asarlarini qo'yish maqsadida Turkistonga safar qiladi.

U 18-avgustda Parijdan chiqib, Istanbul, Boku, Botumi va Tbilisi shaharlaridan, Kaspiy dengizidan o'tib, "Sharqiy ekspres" poyezdida va so'ngra ot aravalarida o'sha paytda Turkiston guberniyasi hududi bo'lgan O'zbekistonga yetib keladi. Ikki oy davomida Samarqand, Buxoro, Toshkent, Jizzax va boshqa ko'plab shaharlarda bo'lib, o'lkaning kundalik hayoti, yodgorliklari, tabiati, temir yo'l qurilishi haqida 1200 ga yaqin surat va portret ishlagan. Ushbu sayohati tufayli fotografiya tarixida birinчилardan bo'lib "Katta reportajlar" to'plamini yaratgan va Toshkentda o'tkazilgan fotoko'rgazmada qatnashgan edi.

Nadar o'sha davr manzarasi — masjidlar, bozorlar, ko'chmanchilar hayoti, o'ynab yurgan bolalar, savdogarlar, mahalliy amaldorlarni fotosuratga olgan, jumladan, to'plamida Buxoro amiri portreti bor. Suratlarida aks etgan joylarning bugungi qiyofasi butunlay o'zgarib ketgan.

Bu o'zgarishni "Temir darvoza"ning bundan bir yuz o'ttiz besh yil burungi surati bilan uning hozirgi ko'rinishidagi farq ham aniq aks ettirib turibdi. Nadar suratga olgan davrda daraning "darvozasi" anchagina tekis bo'lgan, avtomobil tosh yo'li va temir yo'llar u vaqtda qurilmagan, Sangzor daryosi o'zani bir tekisda butun dara bo'ylab cho'zilgan ekan.

Yana bir muhim o'zgarish — tabiatning bezavol holati. Bundan yuzlab yil oldin yashaganlardan hech biri qoyatoshga nomini yozib, tabiat husniga putur yetkazmagan. Pol Nadar ushbu surati orqali bizga shuni ham yetkazibdi.

Buyuklarning buyukligi shundaki, o'zi o'tib ketganidan so'ng ham merosi avlodlarga xizmat qiladi. Pol Nadarning fotoreportajlari, fotoportretlari, fotolavhalar davrlar, avlodlar tasvirini davrdan davrga, avlodlardan avlodga yetkazib kelmoqda.

Tarix buyuk fotografning xizmatlarini unutmaydi. 2010-yilda Toshkentda Fransiya madaniyat va axborot vazirligi hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamkorligida "Pol Nadar: Turkiyadan Turkistonga 1890" ko'rgazmasi ochilib, unda buyuk fotostaning Fransiya fotoarxivida saqlanayotgan negativilarining asl nusxalaridan ishlangan, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonning boy qadimiy madaniyatini aks ettiruvchi 70 ta fotosurati namoyish etilgandi. O'sha ko'rgazma tufayli buyuk fransuz fotostasi o'zining asarlari orqali yurtimizga ikkinchi marta kelgandi.

O'zbekiston delegatsiyasining Fransiya rasmiy tashrifi davomida har ikkala davlat rahbarlari o'zaro sovg'alarni almashishda o'z xalqlari tarixiga, madaniyatiga katta hurmat bilan buyuk shaxslarning nodir asarlarini tanlashlari tufayli diyorimiz noyob tabiati aks etgan surat yurtimizga keldi. Prezidentimiz "Bu mening Vatanim!" deb faxrlanganidek, suratda aks etgan manzil yurtimiz timsollaridan biridir.

Shu o'rinda ushbu fotosuratda aks ettirilgan joy nomi bilan bog'liq bir noaniqlikni aytib o'tish lozim. Ushbu tarixiy suratda aks ettirilgan noyob tabiiy yodgorlik mashhur Sohibqiron bobomiz Amir Temurga hech aloqasi bo'lmasa-da, uni "Amir Temur darvozasi", "Tumurlan darvoza" atash odat bo'lib qolgan. Prezidentimizning Parijga rasmiy tashrifini yoritgan xorijdagi, hatto respublikamizdagi ayrim ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar bu surat tushirilgan joy nomini keltirishda shunday xatoga yo'l qo'ydi.

Sharq-u G'arbi bog'lovchi Buyuk ipak yo'lida tabiat yaratgan bu darvozaning tarixi barcha o'tgan buyuk zotlarning tarixidan ancha qadimiy bo'lib, u Amir Temurni va ungacha qancha fohitlar-u buyuk zotlarni kutib olib, kuzatib qo'ygan. Tarixiy asarlarda, qadim turkiy bitiklarda bu joy "Temir qoppa", ya'ni "Temir darvoza" shaklida yozib qoldirilgan. Shunday ekan, uni "Amir Temur darvozasi" shaklida qo'llash noto'g'ri. Aksincha, ushbu jug'rofiy joyi o'zining tarixiy nomi bilan atash buyuk bobokolonimizga hurmatimizni zarracha kamaytirmaydi.

Keyingi paytlarda bu xato tariximizdan bexabar xorijiy axborot vositalaridan tashqari, o'zbek tilidagi ayrim ijtimoiy tarmoq kanallarida, tijoriy reklamalarda uchrashi juda achinarli. Bunday hollarga befarq bo'lmasligimiz, tuzatishimiz kerak.

Toshqul BEKNAZAROV,
faxriy jurnalist

Navro'z qadimiy, ulug', Sharqona yangi yil, yilboshi bayramidir. Agar muarrix bobomiz Abu Bakr ibn Ja'far Narshaxiy sarhisobi bilan aytisak, uning tarixi 4 ming yildan ortiqdir.

Bu yilgi Navro'z bayrami mamlakatimizda "Qadriyatlar boqiy bo'lsin, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada keng nishonlanishi ko'zda tutilgan. Qolaversa, Navro'z bayrami muqaddas Ramazon oyida nishonlanayotgani unga xos insonparvarlik, ezigulik, shukronalik, saxovatpehalik fazilatlarini yanada oshirmoqda.



Navro'zda QOZON TO'LSA...

Navro'z ko'plab bahoriy udumlarni, dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq qadimiy marosimlarni, urf-odat va rasm-rusumlarni qamrab olgani bilan milliy qadriyatlarimiz tizimida alohida o'rin tutadi.

Xalqimiz azaldan Navro'z yaqinlashganda ommaviy hashar tashkil qilib, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini bajargan. Bu an'ana bizning kunlarimizda ham mohiyatini saqlab qolgan. Chunki Navro'z, avvalo, inson va tabiat ruhiyatidagi bog'liqlikni o'zida namoyon etadi. Bu esa har bir fuqaroni ona tabiatga e'tiborli bo'lish, atrof-muhitni asrash, yashil makonlarni ko'paytirishdek ezu ishlariga chorlaydi.

Aslida, Navro'z kunlarida har bir kishi bittadan nihol ekish odati bo'lgan. Bunga chorlov va da'vat Navro'z qo'shiqlarida ham alohida tilga olinadi:

**Har bahorda shu odat,
Xalq og'zida rivoyat.
Bittadan nihol ekish,
Navro'zga dir sadoqat.**

Azaldan Navro'zda aholi manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, jamiyatning hech bir a'zosini mehr va e'tibordan chetda qoldirmaslikka alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun Navro'z sayillari qo'shiqlarida bunga alohida urg'u berilib, bunday deyiladi:

**Yetimga bering oshlar,
Egilmasin yosh boshlar.
Sag'irning ham saylidir,
To'kilmasin ko'z yoshlar.**

Aytilayotgan bu fikrlar, tayinki, Navro'zning insonparvarlik mohiyatiga, azaliy qadriyat va an'analarga hamohangdir.

Navro'zda shahar va qishloqlarni obod qilish, yer va suv resurslaridan, barcha tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanishga ham ayricha diqqat qaratilgan.

Shu yil 21-fevralda Prezidentimizning "Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Unda BMT tomonidan xalqaro bayram sifatida e'tirof etilgan Navro'z olamning ko'p millatli jamiyatimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini, birdamlik ruhini mustahkamlashdagi beqiyos o'lm va ahamiyatini hisobga olib nishonlash aytilgan. Sharqona yilboshini shunday ko'tarinki ruhdan o'tkazish yangi O'zbekistonning bugungi salohiyati va nufuziga har tomonlama munosib bo'lishi maqsadida qator vazifalar belgilab berilgan.

Joylarda Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlarni milliy qadriyat va an'analarni hamda bugungi islohotlarimizning ma'no-mohiyatiga mos holda tashkil etish va o'tkazish tavsiya qilingan.



Navro'zda arazlashganlar yarashgan, urushlar to'xtatilgan. Shuning uchun u bilan bog'liq qo'shiqlarda bunday satrlar bor:

**Iydi navro'z — qutlug' ayyom,
Urishganlar toshidaki.**

Bunday o'lmas an'analar esa bugungi tinch va osuda hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg'usi bilan yashashga undaydi.

Prezidentimiz qarorida ta'kidlanganidek, Ramazon oyida nishonlanadigan bu yilgi Navro'zda keksa avlod vakillari, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylari har tomonlama e'zozlanmoqda. Shuningdek, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlari kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olishdagi xayriyalar ham boshlanayapti. Bu ham yangi O'zbekistonda ajdodlar merosiga hurmat, ular ko'rsatgan ezigulik yo'li — insonni qadrlashdagi xayriyalar bajarilayotganidan dalolat.

Xalqimiz orasida juda ko'p qadimiy hunarmandlik turlari saqlanib qolgan. Ularning ko'rgazmalarini, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalarni, xalq o'yinlarini o'tkazish Navro'zning boqiy an'analardan. Mazkur jihat unga oid qo'shiqlarda ham kuylangan:

**Chalimoqda nog'ora,
Tandirlarda kuz'ora.
Polvonlar kurashmoqda,
Bizniki yutsa zora.**



Ayniqsa, Navro'zda to'kin dasturxon tuzatish, "qozon to'ldi" qilib, rang-barang shirin taomlar tayyorlash xalqning to'kinchilik va farovon hayot haqidagi ideallari bilan bog'liq bo'lgan. Unga xos qadimiy udumlardan biri — "qozon to'ldi" hamisha xalqimiz e'tiborida bo'lib kelgan. Navro'z qo'shiqlarining birida u haqda bunday deyiladi:

**Qaldirg'och qayib uchar,
Qanotini yoyib uchar.
Navro'zda qozon to'lsa,
Elimizni baxt quchar.**

Navro'z arafasida "qozon to'ldi" qilish an'anasi ajdodlarimizning hosildorlik va qut-baraka bilan aloqador qadimiy e'tiqodiy qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi. "Qozon to'ldi"da har bir xonadon ahli o'z xohish va imkoniyatiga qarab palov, ko'k somsa, ko'k chuchvara, bo'g'irsoq, tuxum barak, navro'zgo'ja kabi milliy tansiq taomlarni tayyorlaydi. "Qozon to'ldi" oqshomida tayyorlangan taomlar va pishiriqlar qo'ni qo'shnilariga, qarindosh-urug'larga ham ulashilgan.

Dasturxonida, albatta, o'rik turshagini qaynagan suvda ivitib tayyorlanadigan "g'o'lingob" sharbati bo'lishiga ahamiyat qaratiladi. Uni bog'larimiz mevasi mo'l bo'lsin deb navbatma-navbat ichishgan. Shu orqali kelayotgan yilda hosil mo'l bo'ladi deb umid qilishgan. Navro'zda bozorlarda ham, albatta, g'o'lingob sotilgan. Shuning uchun Navro'z qo'shiqlarida quyidagi kabi baytlar uchraydi:

**Rastalar buncha do'lob,
Olib iching g'o'lingob.**

Navro'zga xos turli ovqatlar, jumladan, halisa, halim, sumalak kabi taomlar katta doshqozonlarni to'ldirib pishiriladi va jamoa bo'lib iste'mol qilinadi. Keng ko'lamli ommaviy marosimlar chog'ida taom tayyorlangan bunday qozonlar el-yurtini birlashtirishga, o'zaro hamjihatlikka, birdamlik va farovonlikka xizmat qiladi deb qaralgan. Doshqozonlarning to'lishi mo'l hosil timsoli, to'kin-sochinlik, qut-baraka belgisi hisoblangan. Qozon to'lsa, el-yurt tinch, baxtli bo'ladi, dehqon dalasidan, cho'pon qo'rasidan qut-baraka arimaydi deb ixlos qilingan.

Shunday ishonch va ixlos bilan ajdodlarimiz asrlar davomida Navro'zni eng mo'tabar bayramlardan biri sanab, uni tansiq taomlarga to'la doshqozonlar atrofida shodiyona bilan kutib olgan. Uning atrofida turib, el-yurt tinchligi, farog'ati, bola-chaqasining saodati, dalaga don sochayotgan dehqon barakasi, yaylovlariga qo'y haydagan cho'ponlar do'li, ahli tijorat quti, bemorlar shifosini tilab duoga qo'l ochgan, ezu niyatga yo'g'rilgan olqishlar aytgan: "Xayriyat, qozon to'ldi. Yaxshi kunlarga yetkazganiga shukr. Mo'lchilik va seroblik, tinchlik va omonlik bo'lsin!".

Hozir ham Navro'zda sumalak sayli, kitob ko'rgazmalari, arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmakalari, ko'chma savdo do'konlari, bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalar tashkil etilmoqda. Xususan, ko'klam taomlarini tayyorlash hamda bu borada ko'rgazmali savdo va tanlovlarni uyushtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bularning barchasi yangi O'zbekistonda islohotlar sabab xalqimiz yana qadim yo'lda — ezigulik va xayr-baraka sari dadil odimlayotganini anglatadi.

Darmonoy O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.

37346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:25 Topshirildi — 23:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.